



MILLIY ARMIYA – ONA YURT QALQONI, TINHLIGIMIZ POSBONI!

VATAN UCHUN, MILLAT UCHUN, XALQ UCHUN!

VATANPARVAR



HARBIYNING INTERVYUSI

Men dunyoni xushlaganim yo‘q,
jon chekmadim nozikbadan deb.
Ko‘kraginga mushtlaganim yo‘q,
vatan, vatan, vatan, vatan deb.

Xudo bergan shu ne‘mat laziz,
shukr desam, arzirli go‘sha.
Vatan – tug‘gan onamday aziz,
onamning ham onasi – o‘sha.

Xizmat qilay tirikman toki,
axir ona poyida jannat;
duosini olaymi yoki
sevishimni qilaymi minnat?!

Shundan sevsam hamki sizchalik,
hayqirmadim tun-kun vatan deb.
Vatan deya jon bermadim, lek
jon olishim mumkin Vatan deb!

Mansur JUMAYEV,
shoir



IJTIMOIY-SIYOSIY, MA'NAVIY-MA'RIFIY,
HARBIY-VATANPARVARLIK GAZETASI

GAZETA 1992-YILNING
4-IYUNIDAN CHIQA BOSHLAGAN
WWW.MV-VATANPARVAR.UZ

2026-YIL 27-FEVRAL
№9 (3175)



Amir Temur tavalludining 690 yilligiga

Samarqand Yer yuzining sayqali, sohibqiron Amir Temur uning bosh sayqalchisi edi. Bu sharaflı ishni Mirzo Ulug'bek va Yalangtushbiy bahodir nihoyatda yuksak saviyada maromiga yetkazib davom ettirdi. Bu saf juda uzun, unda turganlarning har biri olqishga sazovordir. Ularning har biri shonli tarix, hayotda bo'lib o'tgan tiriklik hodisalari edi.

O'zbek xalqining tarixi o'tmishga chuqur botgani sari shunday voqealar bilan mustahkamlanib, hayot tuprog'idan ko'proq quvvat olaveradi. Bu azaliy jarayondir. Ularning hammasi avlodlarga ko'hna Turonni tanittiradi. Samarqandning shunday dunyoga olib kiruvchi kutubxonalari bor edi.

SAMARQAND KUTUBXONALARI to'g'risida so'z borsa, albatta, Amir Temur kutubxonasi tarixi qizg'in so'zlar bilan yoziladi. Sohibqironning boy kutubxonasi bo'lganini barcha hech bir e'tirozsiz e'tirof etadi. Bizga hozir e'tiroflardan ko'ra, o'sha kutubxonaning o'zi kerak bo'lib turibdi. Manbalarda sohibqiron Samarqand, Kesh, Nasaf shaharlarida qurdirgan masjid, xonaqoh, bozorlar, qal'a devorlari, bog'lari va boshqa bunyodkorlik ishlari to'g'risida ma'lumotlar yozib qoldirilgan. Ularga oid ko'plab maqolalar matbuotda e'lon qilingan va bu ish davom etayotir.

Sohibqironning Samarqanddagi kutubxonasiga doir

maqolalarda aniqlik darajasi ulardan ancha pastroqda ekan. Barcha taxminlar taxminlardan yasalgan. **Mutaxassislardan birining "O'rta Osiyoning qadimgi kutubxonalari" mavzusida yozgan maqolasidan parcha keltiramiz.**

"Buyuk sohibqiron davrida Samarqand shahridan kitob olib chiqish man etilgan, kitoblar tengsiz boylik sifatida qo'riqlangan.

Amir Temur (1336-1405) avval Vatani Shahrisabzda, so'ng mamlakat poytaxti Samarqandda saroy kutubxonasi tashkil qildi. Temurning saroy kutubxonasi uchun butun Movarounnahr bo'ylab kitobfurushlardan va shaxsiy kutubxona egalariidan mashhur mualliflarning bejirim bezatilgan kitob nusxalari sotib olindi. Kutubxonada qo'lyozma ko'chirish, kitoblarni bezatish ishlarini milliy kitob san'atining mohir ustalari olib borganlar. Samarqandda arab, fors, turk, sanskrit, yunon, lotin, arman tilidagi ko'plab bebaho qo'lyozmalar Eron, Turkiya, Hindiston, Iroq, Armaniston kabi davlatlardan, Istanbul, Bruss, Isfahon, Hamadon, Sheroz, Bag'dod, Basra, Damashq kabi qadimiy madaniyat o'chog'i bo'lgan shaharlardan olib kelingan edi.

Olimlarning taxminicha, Temur Samarqandga VIII asrning birinchi choragida aynan Basradan Kufiy xati bilan ko'chirilgan Qur'oni karimning nusxasini olib kelgan".

AMIR TEMUR

KICHIKKINA MATNDA juda aniq va katta ma'lumot berilgan. Ammo tadqiqotchi uchun ular juda shubhali. Avvalo, islom o'lkalarining hech birida biror shahardan kitob olib chiqish taqiqlanmagan. Shariat qonunlari bunday farmonga yo'l qo'ymasdi. Matnning keyingi qismi ahvoli ham shunday, durust emas. Bu ma'lumot Nizomiddin Shomiy, Muiniddin Natanziy, Sharafiddin Ali Yazdiy, Abdurazzoq Samarqandiy, Fasih Xavofiy yo biror boshqa muallifdan olingan bo'lsa va ma'lumot olingan qo'lyozma manba ko'rsatilganda bunday gumon paydo bo'lmasdi.

Xuddi ular kabi Eron, Turkiya, Hindiston, Iroq, Armaniston davlatlaridan arab, fors, turk, sanskrit, yunon, lotin, arman tilidagi ko'plab bebaho qo'lyozmalar olib ketilgani va Samarqandga keltirilgani sho'rolar davridan qolgan, hozirgacha betinim takrorlanadigan siyqalanib ketgan yaroqsiz ma'lumotlardir. Rus tilida ijod qiluvchi ayrim tadqiqotchilar, ayniqsa bu hikoyani oshirib, ko'pirtirib yozishni yaxshi ko'radi.

Nega o'sha o'rta asrlardan sho'rolar zamonigacha Amir Temur Armanistonning bebaho qo'lyozma asarlarini Samarqandga tashib ketgani to'g'risida Sharqning biror muallifi yozmagan? Armanistonda o'zi shunday ilmiy ahamiyatga ega yo Turon tarixini yoritishga xizmat qilishga arziydigan biror nodir qo'lyozma bo'lganmi? Sohibqiron harbiy yurishlaridan qaytishda Samarqandga nechta kitob olib kelgan? Balki, besh yo o'ntadir? Harqalay yuz yo mingta emasdir. Bu to'g'rida aniq ma'lumot bormi?

O'zbekistonning qadimgi kutubxonalariga oid bu ma'lumotnoma muallifida ayb yo'q. Chunki Turon kutubxonalari

mavzusida hali jiddiy tadqiqotlar amalga oshirilmagan. Amir Temur kutubxonasi to'g'risida yozilgan boshqa maqolalarda ham matn mazmuni shundayligicha qolaveradi. Faqat satrlar o'rni va miqdori o'zgartiriladi. Ularga nazar solinganda ilmning har sohasida bir qadam oldinga tashlash qanchalar qiyinligi yaqqol ko'rinib qoladi.

HERMAN VAMBERI o'tgan asrning saksoninchi yillarida yurtimizda juda mashhur bo'lgandi. Hatto hozirgacha uni obro'li muarrixlar qatoriga qo'yishadi. U 1863-yili Xiva, Buxoro, Samarqand, Qarshi kabi shaharlarda sayohatda bo'lgandi. Buxoro madrasalari tarixini o'rganish chog'ida asaridan foydalanishga harakat qilgandik. Biroq yozganlari juda oldi-qochdi gaplar, biligi sayoz, voqelikka jiddiy e'tibor ko'rinmadi. Turon tarixiga ko'proq pisandsiz qaraydi. O'zini ko'p narsa biladigandek ko'rsatishga harakat qiladi. U taraqqiy etgan dunyodan Turonga uning tanazzuli paytida kelgandi. Atrofga bepisandlik, albatta, shundan bo'lsa kerak. Biroq uning yozganlari baribir bir kishining ko'rganlari va boshdan kechirganlaridir. E'tibordan qoldirib bo'lmaydi.

U sohibqiron Amir Temur tarixiga alohida diqqat qaratadi. Olimlar, adab ahli bilan munosabati, bosqinlaridan birida Samarqandga kutubxona ko'chirib kelganini yozadi:

"U yoshligida otasi va ruhoniy imomlarning talqinlari ta'siri bilan hayotga islom va tasavvuf nazaridan qaragan edi. Uning qat'iy jangovar ruhi va chegara bilmas yagona rayosati hamisha bu sifatlari bilan botiniy kurashda edi. So'nggi sifatlarda g'olib bo'lsa kerakki, o'zi shundan deydi:



Surat sun'iy intellekt yordamida tayyorlandi

KUTUBXONASI

“Hokimiyatni qo’lda qilich bilangina ushlab turish mumkin”. U askariga Isfahonni talon-toroj qilishga ruxsat berganda, ulamolar mahallasiga shafqat qilishni amr etgan. Hirot va Halab ulamolari bilan diniy munozaralar qurgan. O’ziga o’xshab fikr qilmaydigan (o’zgacha fikrlaydigan) kishilarga shohona hadyalar bergan. Temur alloma Sharafiddin Halabiy bilan nihoyatda keskin munozara qilgan. So’ngra uni himoyasiga olib, o’zi va muridlariga qimmatli tuhfa berishni buyurgan. Ularning soni 2 000 ga yaqin bo’lgan. U libos va hadyalar bilan alloma Shamsiddin qozi, Jaziriy va mashhur Shayx Buxoriyni o’z tarafiga jalb etishga intilgan. Holbuki, bular uning dushmani saroyida qo’lga olinganlar edi. Ular Temurga ochiq dushman edi. U qaysi mamlakatni egallasa, uning noyob o’ljasi – shu o’lkaning rassomlari, mohir ustalari edi. U Bursa kutubxonasidagi kitoblarni yuk tashiydigan hayvonlarga ortib, Samarqandga ko’chirtirgan.

ENDI SHU KISHINI vahshiy, marhamatsiz deb atash mumkinmi? Binobarin, Temurni Chingiz ila bir safga qo’yib, uni vahshiy, zolim, qaroqchi deb atagan kishilarning fikrlari ikki martaba xatodir. U, avvalo, Osiyo sarkardasi edi. G’olib askarlari va qurollaridan o’z zamonasining taomilicha foydalangan. Uning faoliyati, dushmanlari tarafidan gunoh hisoblangan ishlari va urushlari, teranroq qaralsa, doimo biror jinoyatga jazo tarzida ro’y bergan. To’g’ri, jazo qattiq, lekin adolatli bo’lgan. Isfahon va Sherozda u xiyonat tufayli qatl qilingan askarlari uchun qasos olgan”.

Herman Vamberi axborotlari oddiy o’quvchiga juda qiziq va u bilib yozayotganday taassurot qoldiradi. Mazkur ma’lumotlari ham shunday. Biroq uning yozganlari tadqiqotchi aniqlagan birlamchi manbalar, tarixiy hujjatlar, u ko’rgan jamiyatdagi ijtimoiy qonuniyatlarga sira mos tushmaydi. Amir Temur rostdan Bursa kutubxonasini Samarqandga ko’chirib ketganda, hozirgacha bu to’g’rida qanchadan qancha kitoblar, yuzlab maqola yozilgan bo’lardi. Hozir biror kimsa Herman Vamberi aytganlariga ishonsa bo’ladigan dadilroq nimadir qo’sha olgani yo’q. Vamberining Turonga kelib ketganidan olti yil o’tib, yana bir kishi Samarqandda paydo bo’ladi va undan ham oshirib-toshirib bir nimalar yozadi. Yoqangni ushlaysan... U bilan quyida “Mirzo Ulug’bek kutubxonasi”da uchrashamiz.

TURON KUTUBXONACHILIK SOHASIning ham taxminan, madrasalar kabi 1200 yillik o’z boshqaruv va xizmat ko’rsatish tizimi, nizomlari bor edi. Yana janob Mirza Badi devoniga murojaat qilamiz. **U deydi:** “Movarounnahr hukmdorlari ulug’lar tajribalariga amal qilib, lavozimlarni to’rt toifaga ajratadi. To’rt xil yerga egalik turi, xalifalar ham

to’rt nafar bo’lgan, tabiat – yer, suv, shamol va olovdan tashkil topgan; inson mijozi – balg’am, savdo, safro, qon; yil fasllari – bahor, yoz, kuz va qishdan iborat; tomonlar – shamol g’arb, shimol, sharq va janubdan esadi, ularga mos ravishda – qor, yomg’ir, do’l yog’adi va qirov tushadi. Bunday misollar yana ko’pdir.

Movarounnahr hukmdorlari davlat boshqaruvi lavozimlaridan tashqari, shariat asosida olimlarning to’rt oliy toifasini belgiladi”.

MUALLIF TA’KIDLAYOTGAN olimlarning yuqori toifasini huquqshunoslar tashkil etardi. Uning ma’lumotiga ko’ra:

Birinchi toifadagi lavozim: hukm chiqaruvchilar – eng oliy toifa “shayx ul-islom”dir. Ayrim mushkul masalalar yechimida “qozi ul-quzzot” (bosh sudya) unga murojaat qiladi va maslahatlashadi. Davlat boshqaruvi tizimida “shayx ul-islom” lavozimi “bosh sudya”dan yuqori turadi. Biroq favqulodda biror jiddiy zarurat bo’lmasa, “shayx ul-islom” sud ishlari jarayoniga aralashmaydi.

Bosh sudya (qozi ul-quzzot) – unga barcha fuqaro hamda harbiy sudya – qozi askar murojaat qiladi va maslahatlashadi.

Sudya (qozi) – jamiyatdagi xalq unga murojaat qiladi va muammolarini hal etadi.

Harbiy sudya (qozi askar) – harbiylar hamda xalq ommasi murojaatlarini tinglaydi va hal etadi.

Muallif hisob-kitob va yozuvchizuv ishlariga mas’ul mansablar sohiblari haqida: “Yana to’rtta kichik mansab bor, birinchisi **kitobdordir**. U olimlar, fozillar va ijod ahlining bitiklarini qabul qilib oladi va oliy hukmdor qabuliga yetkazadi. Oliy dargohga mansub kutubxonani ham u nazorat qiladi”, deb yozganini yuqorida aytib o’tdik.

Muallif bu an’analar Movarounnahrda qadimdan davom etib kelayotganini ta’kidlamogda. Mazkur tartib-qoidalar Amir Temur davlat boshqaruv tizimi va saroy kutubxonasiga ham tegishlidir.

KITOBODOR kutubxona faoliyatini nazorat qilar, uni nodir va yangi kitoblar bilan to’ldirib borish ishlarini muntazam amalga oshirib turardi. Bu davlat kutubxonasi edi. Mamlakatdagi viloyatlar hokimliklari devonlarida ham xuddi shu tartibda ish olib borilgan. 1915-yili Buxoro davlati tarkibida 27 viloyat va 11 tumandagi aholi maskanlari ro’yxatga olinadi. Demak, bu paytda mamlakatda o’ttizga yaqin davlat kutubxonasi faoliyat yuritgan. Buxoro tumanlarini ham ular qatoriga kiritsak, bu ko’rsatkich yana ortadi.

Sohibqiron Amir Temur kutubxonasi xuddi shunday ijtimoiy maqomda edi. U Samarqand arki – Ko’ksaroyda joylashgandi. Amir



Temurning undan boshqa yana ikkita kutubxonasi bo’lgan. Biri qurilish jarayonini shaxsan o’zi kuzatib borgan va ishtirok etgan Samarqanddagi Ulug’ masjid edi. U keyinchalik xalq orasida Amir Temur va ba’zan Bibixonim jome masjidi nomi bilan shuhrat qozonadi. XVIII asrdagi buzuvchilik davrigacha Samarqand ahli juma namozini ushbu masjidda ado etgan. Olimlar va adiblar shu joyda to’planib, Buxoroning Masjidi kalonidagi singari ilmiy majlislar uyushtirilgan. Yangi yozilgan asarlar muhokama qilingan. Bu ulkan ma’rifat maskani kutubxonasiga ham sohibqiron Amir Temur asos solgandi. Buzuvchilik davrida bu Ulug’ jome masjidi qarovsiz qolib, oxir-oqibat bozorga aylantirilgach, shahar ahli juma namozini Tillakori madrasasi masjidiga ko’chiradi.

MUHAMMAD SULTON MADRASASI qarshisidagi xonaqoh qurilishini ham Amir Temur boshlab bergan. Bu dargohda asosiy e’tibor tasavvuf ilmiga qaratilishi bilan birga boshqa fanlardan ham ta’lim berilgan. Va albatta, u kutubxona bilan ta’minlangandi. U va tarkibidagi kutubxona ham Bibixonim jome masjidiga qismatdosh bo’ladi. Samarqanddagi buzuvchilik davridan XIX asrga bus-butun holda o’ta olmaydi.

Sohibqiron Amir Temur kutubxonalari ichkilikbozlikka mukkasidan ketgan temuriy Xalil sulton hukmronligi davridayoq (1404–1409) talafotga uchray boshlaydi. Davlatning amaldagi hukmdoriga aylanib qolgan Shod Mulk xonim boshqaruv va ta’lim tizimiga sezilarli zarar yetkazadi. U tajribali va sadoqatli amirlarni davlat boshqaruvidan haydab, Sharafiddin Yazdiy ta’kidlashicha, bir guruh tayinsiz avom jamoa va qullarni yuqori lavozimlarga tayinlaydi. Oqibatda davlat xazinasi qisqa fursatlarda bo’shab qoladi, vaqf mulklari nazorati susayib ketadi.

Biz o’qigan deyarli barcha maqolalarda Amir Temur kutubxonasi Mirzo Ulug’bekka (1394–1449) meros bo’lib qolgani, ilm va adab ahlini qo’llab-quvvatlagan ma’rifatparvar nabira uni tinimsiz boyitib borgani aytilgan.

Amir Temur kutubxonasiga oid tadqiqotlar natijalari, ularda bildirilgan mulohazalar amalda birlamchi manbalardagi ma’lumotlar, kutubxonalar tizimi tarixi va asrlar mobaynida bu sohani boshqarib turgan qonuniyatlarga sira mos tushmayapti.

XVIII ASRDA (1710–1780) sodir bo’lgan o’sha buzuvchiliklar jarayonlarida Ko’ksaroydagi kutubxona ham qariyb e’tiborsiz qoladi. Vayronaliklar oqibatida shahardagi barcha muassasalar vaqf mulklaridan daromad kelmay qo’yadi. Vaziyat og’irlashib ketganidan, hatto Samarqand shahri odamlarsiz bo’shab qoladi. 1780-yili Amir Shohmurodbiy hokim bo’lib kelib, Samarqandni tiklashga qat’iy bel bog’laydi va qisman avvalgi holini tiklashga muvaffaq bo’ladi. Amir Temur kutubxonasi ham xuddi shunday og’ir, fojialarga to’lib-toshgan davrni boshdan kechirgandi, qarovsiz qolgandi.

Hech bir muassasa – madrasa, masjid, kutubxona, xonaqoh jamiyatda sodir bo’layotgan siyosiy, iqtisodiy voqealardan chetda qolmaydi. Ularning gullab-yashnashi yo xarobaliklarga yuz tutishi ular bilandir.

Mirzo Ulug’bek Samarqandda yana bir nechta alohida kutubxona barpo etdi. Ular orasida o’sha mashhur madrasa va rasadxona kutubxonalari, hatto Ko’ksaroydagidan-da boyroq edi.

Abdusattor JUMANAZAR,
O’zR FA

Abu Rayhon Beruniy nomidagi Sharqshunoslik instituti katta ilmiy xodimi

VATAN HIMOYACHISIDAN

Vatan... Bu so'z zahirida xalq taqdiri, avlodlar orzusi, tinch osmon ostida erkin yashash baxti mujassam. Tinchlikka erishish oson emas, uni asrash esa yanada mas'uliyatli. Osoyishtalik esa ertangi kunga ishonch bilan qarashga undaydigan, elni birlashtiradigan ulug' ne'matdir. Ana shu muqaddas tushunchalar Yangi O'zbekistonda amalga oshirilayotgan keng qamrovli islohotlar zahirida o'zgacha mazmun kasb etmoqda. Zero tinch va barqaror hayotni ta'minlash, yurt osoyishtaligini mustahkamlash har qanday taraqqiyotning asosiy shartidir.

Davlatimiz tomonidan amalga oshirilayotgan islohotlar ham, avvalo, Vatan xavfsizligi va xalq farovonligini ta'minlashga qaratilgan. Shu nuqtayi nazardan, joriy yilning 13-yanvar sanasida Prezidentimiz raisligida o'tkazilgan Xavfsizlik kengashining kengaytirilgan yig'ilishi alohida ahamiyat kasb etdi. Unda mamlakat mudofaa salohiyatini yanada mustahkamlash bilan birga muddatli harbiy xizmatni o'tayotgan yoshlarning kelajagini ta'minlashga qaratilgan muhim vazifa va imkoniyatlar belgilab olindi.

Unga ko'ra, muddatli harbiy xizmatning yangi modeli joriy etilib, har bir askar xizmatdan qaytganida nafaqat harbiy tajriba, balki aniq kasbiy ko'nikmalar va hayotiy istiqbolga ega bo'lishi maqsad qilindi. Yig'ilishda zamonaviy bilim va raqamli texnologiyalarga alohida e'tibor qaratildi. **"Bir million dasturchi"** hamda **"Sun'iy intellekt sohasida besh million yetakchi"** dasturlari doirasida har yili muddatli harbiy xizmatchilarni o'qitish rejalashtirildi. Bu tashabbus armiyani bilimli, zamon talablariga javob beradigan kadrlar bilan ta'minlashga xizmat qiladi.

Shuningdek, muddatli harbiy xizmatni o'tash davrida oliy ta'lim muassasalariga o'qishga kirish uchun sharoit yaratilishi, xizmatdan keyin ta'limni davom ettirishga davlat tomonidan qo'llab-quvvatlash choralari belgilandi. Xususan, sertifikat xarajatlarini qoplash, foizsiz ta'lim kreditlarini ajratish kabi imkoniyatlar yoshlar uchun katta rag'batdir. Harbiy xizmatdan qaytganlarni ish bilan ta'minlash, tadbirkorlikka yo'naltirish va ishga joylashishda qo'shimcha imtiyozlar berish choralari ham kengaytirilmoqda.

Islohotlar jarayonida ma'naviy-ma'rifiy tarbiya ham chetda qolmadi. Joriy yilda harbiy qism va muassasalar **1 million nusxada** badiiy adabiyot bilan ta'minlanishi, armiyada sportni rivojlantirish, yoshlar qiziqishiga mos zamonaviy yo'nalishlarni joriy etish hamda vatanparvarlik tarbiyasini raqamli makon xususiyatlarini hisobga olgan holda kuchaytirish vazifalari belgilab berildi. Shu bilan birga, harbiy xizmatchilarni aniq kasb-hunarlariga o'qitish, ularga amaliyotga yaqin bilim va ko'nikmalar berish masalasiga ham alohida e'tibor qaratilmoqda. Bu borada **Prezidentimiz joriy yilning**

24-fevral kuni Ko'ksaroy qarorgohida yoshlar bilan bo'lgan muloqotda ham to'xtalib o'tib, har bir vazir, hokim, oliygoh rektori, texnikum va maktab direktori hamda boshqa mas'ullar zimmasiga aniq vazifalar yukladi.

Shuningdek, hududdagi yoshlarning til va kasb-hunar o'rganishi, sport bilan shug'ullanishi, g'oya, loyiha va startaplariga ko'mak berishi, ularni ishli va daromadli qilib, birorta yoshni e'tiborsiz qoldirmasligi shart ekanini ta'kidladi. Mazkur vazifalar harbiy xizmatchilarni kasbga o'qitish, ularning kelajakda jamiyatda o'z o'rnini topishiga ko'maklashish ishlari bilan ham uzviy bog'liqligi quvonarlidir. Chunki **armiya nafaqat Vatan himoyachilari maktabi, balki yoshlarning kelajak hayoti uchun mustahkam poydevor yaratib beruvchi tarbiya va kasb o'rgatish maskaniga aylanmoqda.**

– Prezidentimiz tomonidan belgilab berilgan ustuvor yo'nalishlar ijrosi hududlarda izchil amalga oshirilmoqda, – deydi podpolkovnik Alisher Ergashev. – Jumladan, Surxondaryo viloyatida Mudofaa vazirligiga qarashli qo'mondonlik va viloyat kasbiy ta'lim boshqarmasi o'rtasida hamkorlik memorandumini imzolandi. Ushbu kelishuvga muvofiq, Xavfsizlik kengashining kengaytirilgan yig'ilishida belgilangan vazifalarni birgalikda bajarish, muddatli harbiy xizmatchilarni amaliy kasblarga o'rgatish orqali ularning kasbiy salohiyatini oshirish maqsad qilingan. Memorandum asosida askarlar bir qator yo'nalishlarda ikki oylik o'quv kurslarida bilim oladi.

Muddatli harbiy xizmatchi, oddiy askar Dilshodbek Tog'onboyev Toshkent viloyatining Chinoz tumanida tavallud topgan, ayni vaqtda Surxondaryo viloyatida Vatan oldidagi yigitlik burchini sharafla bilan ado etmoqda. Harbiy xizmat jarayonida u nafaqat jismoniy va




ma'naviy jihatdan chiniqmoqda, balki hayotda zarur bo'lgan amaliy kasb – santexniklikni ham puxta o'zlashtiryapti. Mutaxassislar rahbarligida olinayotgan bilim va ko'nikmalari unga xizmatdan keyin ham ish bilan ta'minlanish, oilasi va jamiyat farovonligiga hissa qo'shish imkonini berishi bizni yanada mamnun qiladi.

– Santexniklik kasbi bugungi kunda eng talab yuqori bo'lgan amaliy yo'nalishlardan biri hisoblanadi, – deydi Dilshodbek biz bilan suhbatda. – Ustozimning

aytishicha, mutaxassislik darajasi va ish hajmiga qarab, santexnik bir oyda o'rtacha barqaror daromad topishi, ayrim hollarda esa buyurtmalar ko'p bo'lsa, ancha yuqori mablag' ishlab olishi mumkin ekan. Eng muhimi, bu kasb insonni hech qachon ishsiz qoldirmaydigan, mehnat bilan halol rizq topishga yo'l ochadigan barqaror va ishonchli kasblardan biridir.

Qisqa vaqt ichida santexniklik kasbi bo'yicha amaliy bilim va ko'nikmalarga ega bo'ldim, men endi, mustaqil ravishda suv ta'minoti va kanalizatsiya tizimlarini o'rnat



MALAKALI MUTAXASSISGA QADAR



olaman. Quvurlarni to'g'ri ulash va ta'mirlash, santexnika uskunalarini sozlash, nosozliklarni aniqlash va bartaraf etish, shuningdek mehnat xavfsizligi qoidalariga rioya qilish kabi muhim tajribalarni ham o'zlashtirdim. Bu ko'nikmalarim menga nafaqat xizmat davrida, balki kelgusida mustaqil mehnat faoliyatini yo'lga qo'yishda ham mustahkam asos bo'lib xizmat qiladi.

Tahlillarga ko'ra, bugun mehnat bozorida payvandchilarga bo'lgan talab ham juda yuqori bo'lib, ayniqsa qurilish va sanoat sohaslarida ish o'rinlarining 25–30 foizi aynan shu kasb egalari hissasiga to'g'ri keladi. Bu raqamlar payvandchilik kasbi nafaqat barqaror, balki iqtisodiy jihatdan ham jozibador ekanini ko'rsatadi.

Buxoro viloyatining Romitan tumanida tug'ilib voyagan yetgan oddiy askar Tolibjon Ramazonov bugun Vatan oldidagi burchini ado etar ekan, payvandlash kasbini

ham egallamoqda. Ikki oylik o'quv va amaliyot davrida u elektr va gaz payvandlash usullari, metall konstruksiyalarni ulash, choklarni mustahkam qilish hamda texnika xavfsizligi qoidalariga bo'yicha 10–12 ta asosiy amaliy ko'nikmalarni o'zlashtirdi. Aytish kerakki, Tolibjon kabi yoshlar uchun harbiy xizmat davomida kasb egallash kelgusida ish bilan ta'minlanish va mustaqil hayot boshlash uchun ishonchli zamin bo'lib xizmat qilmoqda. Bu haqda u shunday deydi:

– Muddatli harbiy xizmat davomida payvandlash kasbini o'rganish imkoniyatiga ega bo'lganimdan mamnunman. Ilgari bu sohada umuman tajribam yo'q edi. Ikki oylik o'quv va amaliyot davrida ustozlarimiz bizga elektr va gaz payvandlashni o'rgatdi. Shuningdek, metall konstruksiyalarni ulash, birlashgan qismlarni mustahkamlash, ish jarayonida texnika xavfsizligi qoidalariga amal qilish kabi muhim ko'nikmalarni egalladim. Hozir mustaqil ravishda amaliy ishlarini bajara olaman. Eng muhimi, bu kasb kelajagim uchun ham kerak bo'ladi. Xizmatdan qaytgach, shu yo'nalishda o'z faoliyatimni boshlash niyatim bor. Harbiy xizmat davomida kasb o'rganish yoshlar uchun juda katta imkoniyat, deb o'ylayman. Bu bizga vaqtni samarali o'tkazishga, kelajakka ishonch bilan qarashga yordam beradi.

Oddiy askar Abduhalil Murotaliyev Farg'ona viloyatining Beshariq tumanida tavallud topgan. Xizmat jarayonida u zamonaviy iqtisodiyotning eng ustuvor va tez rivojlanayotgan yo'nalishlaridan biri – axborot texnologiyalari sohasini chuqur o'rganishga kirishgan. Hozirda Abduhalil

kompyuter savodxonligi, ofis, onlayn platformalar va ma'lumotlar bilan ishlash asoslari, internet xavfsizligi, algoritmik fikrlash hamda dasturlash bo'yicha 20 ga yaqin nazariy va amaliy ko'nikmani o'zlashtirdi.

– Bugungi kunda IT sohasi eng tez o'sib borayotgan yo'nalish hisoblanadi, – deydi oddiy askar Abduhalil Murtoliyev. – Yaqinda bir ma'lumot o'qidim. Raqamlashtirish jarayonlari kuchayib borayotgan sharoitda bo'sh ish o'rinlarining taxminan 35–40 foizi aynan axborot texnologiyalari bilan bog'liq kasblarga to'g'ri kelayotgan ekan. Chunki davlat idoralari, bank-moliya tizimi, ta'lim, sanoat va xususiy sektorda IT mutaxassislariga bo'lgan talab yil sayin oshib bormoqda. Bu esa qiziqishimni oshirdi. Menga bu sohaning manzur bo'lgan jihati IT sohasi yoshlarga nafaqat barqaror daromad, balki masofaviy ishlash, xalqaro loyihalarda ishtirok etish va o'z ustida doimiy rivojlanish imkoniyatini ham beradi.

Muxtasar aytganda, bugun harbiy xizmatchilarga kasb o'rgatish tashabbusi – bu faqat bir askarning kelajagi haqida emas, balki butun jamiyat barqarorligi haqidagi strategik qaror. Chunki kasb egallagan harbiy xizmatchi keyinchalik ish izlab sarson bo'lmaydi, balki mehnat bozoriga tayyor, raqobatbardosh kadr sifatida kirib keladi. Bu esa ishsizlikni kamaytiradi, oilalar daromadini oshiradi, iqtisodiyotga malakali mutaxassislar oqimini ta'minlaydi. Eng muhimi, Vatanni qo'lda qurol bilan himoya qilgan yigitlar tinch hayotda ham uni mehnati, bilimi va kasbi bilan mustahkamlaydi. Shu ma'noda, harbiylarga kasb o'rgatish davlat xavfsizligi, iqtisodiy taraqqiyot va kelajak avlod taqdiri uchun muhim bo'lgan uzoqni ko'zlagan, xalqchil va oqilona tashabbusdir.

III darajali serjant
Akbar AHMEDOV
Termiz garnizoni



Muqaddas burch



Vatan osmoni musaffo, yurtimiz tinch va osoyishta bo'lishi, avvalo, uning posbonlari bo'lgan mard va jasur o'g'lonlarimizning sadoqati, matonati va yuksak ma'naviyati samarasidir. Milliy armiyamiz safiga qo'shilgan har bir yigit qalbida ona yurtga muhabbat, xalqimizga sadoqat va tinchlikni asrashdek ulug' burch mujassam. Ana shu ezgu g'oyalar ro'yobi yo'lida Janubi-g'arbiy maxsus harbiy okrug tasarrufidagi Kakaydi garnizonida joylashgan harbiy qismda "Milliy armiya – ona yurt qalqoni, tinchligimiz posboni!" mavzusida ma'naviy-ma'rifiy tadbir bo'lib o'tdi.

MILLIY ARMIYA – TINCHLIK VA MATONAT TIMSOLI

Unda Respublika Ma'naviyat va ma'rifat markazi rahbari Otabek Hasanov ishtirok etib, harbiy xizmatchilar bilan ochiq va samimiy suhbat qurdi.

Dastlab tadbir ishtirokchilari harbiy qismda askarlar uchun yaratilgan shart-sharoitlar bilan tanishdi. Radioeshittirish orqali harbiylarga samimiy tabrik yo'llandi. So'ng "Adiblar xiyoboni"da harbiy xizmatchilar tomonidan jadid bobolar faoliyatiga bag'ishlangan sahna ko'rinishlari namoyish etildi. Harbiy baxshilar ijrosida terma dostonlar yangradi, chanqovuz sadolari va surxon milliy etnomadaniyatini aks ettiruvchi bezaklar tadbirga o'ziga xos ruh bag'ishladi.



Mehmonlar o'quv xonalarida askarlarning mashg'ulot jarayonlari bilan ham tanishdi. Shuningdek, Jarqo'rg'on tumanidagi "Jasorat maktabi" yoshlarining mashg'ulotlarida ishtirok etib, ularning bilim va ko'nikmalarini kuzatdi.

Shundan so'ng harbiy qism madaniyat markazida O'zbekiston Respublikasi Prezidenti, Qurolli Kuchlar Oliy Bosh Qo'mondoni Shavkat Mirziyoyevning Oliy Majlis va O'zbekiston xalqiga yo'llagan Murojaatnomasi mazmun-mohiyati atroflicha muhokama qilindi. Unda Qurolli Kuchlarimizning jangovar tayyorgarligini oshirish, harbiy xavfsizlik va mudofaa salohiyatini yanada mustahkamlashga qaratilgan ustuvor vazifalar xususida fikr almashildi.



etnomadaniyatiga qiziqib, chanqovuz chalish va do'mbira chertib, terma doston aytishni o'rganganlarini amalda namoyish etdi. Shuningdek, ular uchun yaratilgan kasbga o'rgatish sharoitlari bilan yaqindan tanishdi. Yosh himoyachilarning qiziqishlari, kelajak rejalari va oliy maqsadlari tinglanib, ularga ezgu tilaklar bildirildi.

Bunday ma'naviy-ma'rifiy tadbirlar harbiy xizmatchilar qalbida Vatanga muhabbat va faxr tuyg'usini yanada mustahkamlab, milliy armiyamiz saflarida xizmat qilish sharafiga ekanini yana bir bor namoyon etdi.

**Kichik serjant
Davlatbek RAHMATOV**
Kakaydi garnizoni



Tadbir davomida mudofaa tizimida amalga oshirilayotgan keng ko'lamli islohotlar haqida ham so'z bordi. Harbiy xizmatchilarga yaratilayotgan yangi imtiyoz va imkoniyatlar, ularning ijtimoiy himoyasi va kasbiy rivoji borasidagi yangiliklar haqida batafsil ma'lumot berildi. Kuchli va salohiyatli yurt himoyachisini tarbiyalashda ma'naviyat va ma'rifatning o'rni beqiyos ekanini alohida ta'kidlandi.

Samimiy va ko'tarinki ruhda o'tgan uchrashuv so'ngida boshqa viloyatlardan o'z yigitlik burchini ado etish uchun kelgan askarlar xizmat davomida surxon milliy



Chegara qo'shinlarida

YUKSAK SHARAF

Davlat xavfsizlik xizmati Chegara qo'shinlarida o'z yigitlik burchini o'tayotgan muddatli harbiy xizmatchilarni o'sib kelayotgan yosh avlodga o'rnak sifatida ko'rsatish, ularning fidoyiligini alohida e'tirof etib, yaqinlariga tashakkurnomalar topshirish yaxshi an'anaga aylangan.



Toshkent viloyatining Ohangaron tumanida "Xalq va armiya – bir tan-u bir jon!" shiori ostida ma'naviy tadbir tashkil etildi. Unda tuman hokimligi, kuch tuzilmalari vakillari, o'quvchi-yoshlar, shuningdek tumandan Chegara qo'shinlari safiga muddatli harbiy xizmatga yuborilgan askarlarning ota-onalari ishtirok etdi.

Eng oliy ne'mat bo'lgan tinchligimizni asrab-avaylash har bir fuqaroning muqaddas burchi ekani, qolaversa yoshlarni vatanparvarlik ruhida tarbiyalashda oila, mahalla va maktabning o'rni beqiyosligi alohida ta'kidlangan tadbirning



asosiy qismida, sarhadlarimiz daxlsizligini ta'minlashda yuqori natijalarga erishib kelayotgan bir guruh askarlarning ota-onalari va yaqinlariga "Minnatdorlik xatlari" tantanali tarzda topshirildi.

– Bugun yoshlarimiz juda ham qiziquvchan, ichki energiyaga boy. Ularni bir joyda tutib turishning o'zi qiyin. Harbiy xizmat esa farzandlarimizni tartib-intizomga o'rgatdi, katta hayot maktabi bo'ldi. Men o'g'limdagi o'zgarishlarni ko'rib, juda quvondim. To'g'risi, xizmatga jo'natayotgan vaqtimda qalbmida biroz hadik va hayajon bor edi. Hozir esa to'g'ri qaror qabul qilganimizga amin bo'ldim. Bugun olgan tashakkurnomalarimiz ham so'zlarimning isboti bo'ldi, – deydi Gulmira Tog'ayeva.

Tadbirida ishtirok etgan o'quvchi-yoshlarni harbiy sohaga qiziqtirish va kelgusida ulardan munosib izdoshlarni tayyorlash maqsadida, harbiy texnika hamda qurol-aslahalar ko'rgazmasi ham tashkil etilib, mutaxassis harbiylar tomonidan ularning taktik-texnik tavsifi va qo'llanilishiga oid ma'lumotlar ertamiz egalariga tushuntirib berildi.



Ta'kidlash kerakki, shu kabi tadbirlar Surxondaryo, Jizzax, Xorazm, Farg'ona viloyati hamda Qoraqalpog'iston Respublikasida ham tashkil etilib, o'z yigitlik burchini sharaf bilan o'tayotgan o'g'lonlarning xonadoniga tashriflar amalga oshirilib, ularning ota-onalari e'tirof etildi.

– Muddatli harbiy xizmat – bu Vatanning har bir mard o'g'loni uchun yuksak sharaf, qolaversa jonajon yurti osoyishtaligi, uning hududiy daxlsizligini ta'minlash yo'lidagi muqaddas burchi. Chegara qo'shinlarida xizmat qilayotgan askarlarimiz ham o'z burchini sharaf bilan uddalamoqda, desak, aslo mubolag'a bo'lmaydi. Hattoki, ularning ko'pchiligi davlat chegarasidan noqonuniy tovar-moddiy boyliklari, narkotik



moddalar olib o'tilishining oldini olishda ham munosib ishtirok etib, xizmat rahbariyatining e'tirofiga sazovor bo'ldi. Biz bundan juda ham faxrlanamiz. Tashkil etilayotgan tadbirlarimiz bevosita ana shu xizmatlarning e'tirofiga bag'ishlangan, – deydi podpolkovnik Alisher Yunusov.

Albatta, respublikamiz bo'ylab o'tkazilayotgan bunday tadbirlar xalq va armiya yakdilligini mustahkamlashi bilan birga yurtga sadoqatli, Vatan uchun jonini fido etishga tayyor turadigan asl vatanparvar farzandlarni tarbiyalashda ham muhim omil bo'lib xizmat qilishi, shubhasiz.

Mayor
Farida BOBOJONOVA
DXX Chegara qo'shinlari

Harbiy libosdagi malikalar

“TO‘MARIS” KO‘KRAK NISHONI –

Tarix zarvaraqlariga ko‘z yugurtirar ekanmiz, jang maydonida er yigitlar qatori bir safda turib, Vatanimi, uning tinchligi va farovonligi uchun qon kechib, qon to‘kkan ayol sarkardalarning nomi alohida tilga olinadi. Ular nafaqat jasorat va matonat timsoli, balki yuksak iroda, vatanparvarlik va sadoqat namunasi sifatida ham tarix sahifalarida o‘chmas iz qoldirgan.



Qadimgi davrlardan ayollar nafaqat oila qo‘rg‘oni, balki yurt himoyachisi sifatida ham namoyon bo‘lgan. Misol uchun, sak va massagetlar malikasi To‘maris jasorat va matonat timsoli sifatida tarixda qolgan. U miloddan avvalgi VI asrda o‘z xalqiga yetakchilik qilib, yurtiga bostirib kirgan Fors podshohi Kir II qo‘shinlariga qarshi kurash olib borgan. Rivoyatlarga ko‘ra, u nafaqat siyosiy jihatdan zukko boshchi, balki jang san‘atini puxta egallagan sarkarda edi. O‘g‘li halok bo‘lganiga qaramay, irodasini yo‘qotmasdan, qo‘shinni ruhlantirib, Kir II ustidan g‘alaba qozongan. Shu tariqa **To‘maris nafaqat o‘z xalqi ozodligini saqlab qolgan, balki ayol zotining ham jasorat va yetakchilik salohiyati beqiyos ekanini butun olamga namoyon etgan.**

Vatanga muhabbat, xalq taqdiri uchun mas‘uliyat va istiqlo‘l yo‘lidagi fidoyilik har qanday qalbdan mujassam bo‘lishi mumkin.

Bugungi kunda ham **To‘maris kabi mard va jasur ayollar, jumladan ayol harbiylarimiz Vatan sarhadlari daxlsizligi, yurtimiz tinchligi va xalqimiz osoyishtaligini ta‘minlash yo‘lida fidokorona xizmat qilmoqda.** Ular nafaqat o‘z kasbiga sadoqat, balki yuksak matonat, jasorat va mas‘uliyat namunasi ko‘rsatib, yosh avlod uchun ibrat maktabiga aylanmoqda. Bu borada To‘maris timsoli bugungi kun ayol harbiy xizmatchilari qiyofasida yanada yaqqol namoyon bo‘lyapti.

Mudofaa vazirligi Toifalangan obyektlarni qo‘riqlash qo‘shinlari qo‘mondonligida xizmat qilib kelayotgan III darajali serjant Gulnoza G‘aybullayeva bir necha yillardan buyon harbiy qism guruh texnigi yo‘nalishida samarali faoliyat

yuritib kelyapti. U ayol harbiy xizmatchilar o‘rtasida o‘tkaziladigan sport musobaqalarida faol ishtirok etib, nafaqat jismoniy tayyorgarligi, balki matonati va intizomi bilan safdoshlariga o‘rnak bo‘lib kelmoqda. U sportning basketbol, voleybol, suzish, otish mashqlari va jamoaviy estafetalarda yuqori natijalarni qayd etib, o‘z harbiy qismining sharafiga munosib himoya qilmoqda.

Musobaqalar davomida u harbiy xizmatchining nafaqat jismonan baquvvat, balki sabr-toqatli, mustahkam iroda sohibi va jamoa bilan hamjihatlikda ishlay oladigan shaxs bo‘lishi lozimligini o‘zining amaliy harakatlari bilan isbotladi. Ayniqsa, hal qiluvchi bosqichlardagi qat‘iyati, mas‘uliyatni zimmasiga olishdan cho‘chimasligi va g‘alabaga bo‘lgan ishonchi jamoadoshlariga kuch-g‘ayrat bag‘ishlab, ularni yangi marralar sari ruhlantirdi. Uning har bir chiqishi ortida yillar davomidagi mashaqqatli mashg‘ulotlar, o‘z ustida tinmay ishlash va kasbiga sadoqat mujassam edi.

Buni qarangki, uning fidokorona xizmatlari va samarali mehnati e‘tibordan chetda qolmadi. **O‘zbekiston Respublikasi Qurolli Kuchlari tashkil etilganining 34 yilligi hamda Vatan himoyachilari kuni munosabati bilan III darajali serjant Gulnoza G‘aybullayeva “To‘maris” ko‘krak nishoni bilan taqdirlandi.** Ushbu yuksak mukofot uning xizmat yo‘lidagi yutuqlari, harbiy intizomga sodiqligi va Vatan himoyasidagi munosib hissasining yorqin ifodasi bo‘ldi. Bu e‘tirof nafaqat uning shaxsiy yutug‘i, balki barcha ayol harbiy xizmatchilar uchun ham katta rag‘bat va ilhom manbaiga aylandi.

Bugun Gulnozaning hayot yo‘liga nazar tashlar ekanmiz, uning bolalikdan boshlangan orzu-umidlari, mashaqqat va sinovlarga

to‘la yo‘li, xizmatdagi yutuqlari hamda oilasiga bo‘lgan mehri bir butun ma‘noli qissani tashkil etadi. U kichikligidan intizomli, maqsadga intiluvchan bo‘lib ulg‘aydi, qiyinchiliklardan cho‘chimay, har bir sinovni o‘zini toblash va chiniqtirish imkoniyati deb qabul qildi. Bugun u nafaqat xizmatda, balki oilaviy hayotda ham mehribon va g‘amxo‘r ona sifatida barchaga namuna bo‘lib kelmoqda.

BOLALIK VA ORZULARNING ILK KURTAHLARI

Gulnoza Toshkent viloyatining Bekobod tumanida dunyoga kelgan. Uyi Tojikiston Respublikasi bilan chegaradosh hududda joylashgani uchun harbiy xizmatga bo‘lgan qiziqishi, go‘yoki o‘z uyi ostonasidan boshlangan. Chegarada xizmat vazifasini ado etayotgan harbiy xizmatchilar tun-u kun sergak turib, Vatan osoyishtaligini ta‘minlayotganini ko‘rib ulg‘aydi.

Harbiy texnikalar, saf tortib turgan askarlar, ularning intizom va mas‘uliyati Gulnozaning qalbida chuqur taassurot qoldirdi. Ayniqsa, maktabda chaqiruvga qadar boshlang‘ich tayyorgarlik fanidan o‘tiladigan darslar uning qiziqishini yanada kuchaytirar, har bir mashg‘ulotni alohida ishtiyoq bilan kutib turardi.

O‘qituvchisining har bir so‘zi, harbiylar hayoti haqidagi misollari Gulnozani chuqur o‘yga toldirib, kelajakda shu sohada xizmat qilish istagini yanada qat‘iylashtirardi. U nafaqat nazariy bilimlarni puxta o‘zlashtirar, balki amaliy mashg‘ulotlarda ham faol ishtirok etib, tengdoshlari orasida alohida ajralib turardi. U shu paytlardan **“Men ham Vatan posboni bo‘laman”,** deb o‘z oldiga aniq maqsad qo‘yib, shu yo‘lda tinmay harakat qilardi.

HECH QANDAY TO‘SIQ TO‘XTATIB QO‘LOLMAS

Maqsadi sari intilayotgan Gulnoza maktabni tamomlagach, tumandagi tibbiyot kollejiga o‘qishga topshiradi. U yerda ham turli sport musobaqalarida qatnashib, ilg‘or o‘quvchilar qatoridan joy oladi. O‘qish yillari kollejlarda o‘rtasida “Yosh chegarachilar” musobaqasi o‘tkazilardi. Ustozlari uning shijoati va harakatchanligini bilgani uchun, ushbu musobaqalarda ishtirok etishini tavsiya qiladi. Ustozlarining ishonchi va o‘zining qiziqishi bilan ko‘plab musobaqalarda uning jamoasi faxrlari o‘rinlarni qo‘lga kiritadi.

Ammo Gulnozaning ota-onasi uning harbiy bo‘lish istagiga qarshi chiqadi: “Qiz bola bo‘lsang, bu o‘g‘il bolalarning tanlovi”. Birinchi navbatda oila qurishing, yaxshi uy bekasi bo‘lishing kerak. Ayol boshing bilan harbiy bo‘lib yursang oilangga qanday vaqt ajratasan” deyishar, harbiy xizmatning mashaqqatlari, uzoq safarlar, qat‘iy hayot tarzi uni qiynab qo‘yishidan xavotir olishardi. Ular qizining boshqa yaxshi kasb egasi bo‘lishini, hech bo‘lmaganda shifokorlik yo‘lini tanlashini istardi.

Gulnoza esa ota-onasining gaplariga qarshi chiqmay ularni ranjitmaslikka harakat qilardi, ammo qalbidagi orzusidan voz kechmasdi. U ota-onasining xavotiri mehrdan ekanini tushunar, biroq o‘z taqdirini o‘zi belgilashga haqli ekanini ham his qilardi. Gulnoza ana shu xayollar bilan o‘qishni muvaffaqiyatli tamomladi. Ko‘p o‘tmay, ota-onasining maslahati bilan turmushga chiqdi. Yangi oila, yangi muhit, yangi mas‘uliyatlar Gulnoza hayotida butunlay boshqa bosqichni boshlab berdi. Ona bo‘lish baxti esa uning qalbini yanada boyitdi, hayotga bo‘lgan qarashlarini teranlashtirdi.



JASORAT VA SADOQAT RAMZI



Shu bilan birga, kundalik ro'zg'or ishlari, oilaviy mas'uliyatlar orasida ham uning yuragidagi harbiylik orzusi alanga olib turardi. U o'z-o'ziga ko'p bora savol berar: "Nahotki bu orzu shunchaki yoshlik havasi bo'lgan bo'lsa?" ... Ammo uning bu istagi yillar o'tsa-da susaymadi, aksincha hayotiy tajriba bilan yanada mustahkamlandi.

Gulnoza shuni angladiki, **insonning haqiqiy orzusi vaqt va sharoit sinovidan o'tsa ham yo'qolmaydi. Agar niyat sof va maqsad aniq bo'lsa, unga**

Gulnoza ham qalbidagi orzusini yashirib yurishni istamadi. Bir kuni u turmush o'rtog'i bilan bolalikdan orzu qilgan niyati – harbiy bo'lish istagi haqida gaplashdi. U bu orzu shunchaki havas emasligini, yillar davomida qalbida asrab kelayotgan muqaddas maqsad ekanini tushuntirdi.

Turmush o'rtog'i Gulnozaning ko'zlaridagi ishonch va qat'iyatni ko'rib, uning bu qarorga shunchaki hissiyot bilan emas, puxta o'ylab kelganini angladi. Suhbatdan so'ng biroz sukut saqlab, "agar



yetishish uchun yo'l, albatta topiladi. U qalbidagi shu ishonch bilan yashar, bir kun kelib orzusi ro'yobga chiqishiga umid bog'lardi.

MAQSAD ANIQ BO'LSA, MARRA BIR QADAM

Albatta, inson o'z oldiga qo'ygan maqsadi sari harakat qilsa, ko'zlangan marra unga tobora yaqinlashib boradi. Niyat qat'iy, ishonch mustahkam bo'lsa, vaqt va sharoit ham insonga xizmat qila boshlaydi.

sening peshonangga harbiy bo'lish yozilgan bo'lsa, men senga bu yo'lda tayanch bo'laman", deya ayolini qo'llab-quvvatladi.

Shundan so'ng u o'z ustida yanada jiddiy ishlay boshladi. Jismoniy tayyorgarligini kuchaytirdi, harbiy sohaga oid bilimlarni mustahkamladi. Mudofaa vazirligiga hujjat topshirdi. Buni qarangki, qahramonimiz belgilangan sinovlardan muvaffaqiyatli o'tib, kontrakt bo'yicha harbiy xizmatga qabul qilindi.

VATANGA SADOQAT – SHARAFLI BURCH

Orzusi ushlagan Gulnoza xizmatini boshlagan kundanoq, o'zini go'yo yangi hayot sahnasiga qadam qo'ygandek his qildi. Harbiy qism darvozasidan kirib kelgan on, ko'nglidagi hayajon yuragiga sig'may ketdi. Bolalikda uzoqdan havas bilan kuzatgan harbiylar safida endi uning o'zi turibdi.

Erta tongdagi saf tortishlar, komandirning qat'iy ovozi, bir maromda yangragan qadam tovushlari Gulnozani ruhlantirardi. Har bir mashqda u o'zini sinovdan o'tkazar, charchoqni yengib, yana bir qadam olg'a tashlardi. Ba'zan,

bellashuvlarda u nafaqat kuchli ishtirokchi, balki haqiqiy jamoa yetakchisi sifatida o'zini ko'rsata oldi. G'alabalar ortgan sari mas'uliyat ham kuchaydi.

Shu tariqa sport maydonlaridagi yutuqlar uning xizmat faoliyatiga ham ijobiy ta'sir ko'rsatdi. Chiniqqan iroda, tezkor qaror qabul qilish qobiliyati va jamoada ishlay olish mahorati uning xizmat samaradorligini yanada oshirdi. Uning erishgan yutuqlari va o'z kasbiga sadoqati e'tibordan chetda qolmadi. Qisqasi uning mehnatlari o'z mevasini berdi. Qahramonimiz Mudofaa vazirligi tomonidan "To'maris" ko'krak nishoni bilan taqdirlandi. Ammo Gulnoza uchun eng katta mukofot – bu ishonch



qiyin vaziyatlar ham bo'lardi. Ammo Gulnoza har safar "men shu kunni orzu qilganman" deya o'zini ruhlantirar, shu fikr unga kuch bag'ishlardi.

Kunlar o'tib, u fidoyi harbiy xizmatchiga aylandi. Komandirlarining tavsiyasi bilan ayol harbiy xizmatchilar o'rtasida o'tkaziladigan musobaqalarda qatnashib, turli sport turlarida ham faol ishtirok etdi.

Musobaqalarda qo'lga kiritilgan g'alabalar Gulnozaning o'ziga bo'lgan ishonchini yanada mustahkamladi. Ayniqsa, jamoaviy

edi. Shuning uchun u berilgan rag'batlantirishlarni yangi imkoniyat deya qabul qilib, o'z ustida tinmay ishlay boshladi.

Umuman olganda, Gulnozaning hayot yo'li qat'iyat, sadoqat va mehnat bilan orzularni ro'yobga chiqarish mumkinligini yaqqol namoyon etdi. U qo'lga kiritgan yutuqlar tasodif emas, balki izlanish, matonat va Vatan oldidagi burchni chuqur his etish samarasidir.

**Leytenant
Mansurbek JABBOROV,
"Vatanparvar"**



Qaror va ijro

KONSTITUTSIYAVIY SUD FAOLIYATINI TAKOMILLASHTIRISHNING YANGI BOSQICHI

Mamlakatimizda konstitutsiyaviy islohotlarning amalga oshirilgani juda katta ijtimoiy va huquqiy voqea bo'ldi. Yangi tahrirdagi O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi mamlakatning siyosiy-huquqiy tizimida yangi tarixiy davrni boshlab berdi. O'zbekiston Prezidentining e'tirofiga ko'ra, "Yangi tahrirdagi Konstitutsiya bizga inson huquqlari, demokratiya, erkinlik, barqarorlik, tenglik va taraqqiyot tamoyillariga asoslangan huquqiy va adolatli davlat qurish yo'llarini keng ochib berdi".

Prezident Shavkat Mirziyoyevning Oliy Majlis va xalqimizga Murojaatnomasida ta'kidlaganidek, O'zbekistonning xalqaro maydondagi obro'-e'tibori va nufuzi, xalqaro reytinglardagi o'rni tobora mustahkamlanib bormoqda. Xususan, yetakchi xalqaro reyting agentliklari mamlakatimizning suveren reytingini "BB"-dan "BB" pog'onasiga ko'tardi. Shuningdek, Jahon banki e'lon qilib boradigan davlatlarning texnologik yetuklik indeksida O'zbekiston 71 pog'ona yuqori ko'tarilib, dunyoning top-10 ta mamlakati qatoridan joy oldi.

Bosh qomusimizning 15-moddasiga ko'ra, mamlakatimizda O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi va qonunlarining ustunligi so'zsiz tan olinadi. O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi mamlakatning butun hududida oliy yuridik kuchga ega, to'g'ridan to'g'ri amal qiladi va yagona huquqiy makonning asosini tashkil etadi. O'zbekistonning xalqaro shartnomalari xalqaro huquqning umume'tirof etilgan prinsip va normalari bilan bir qatorda O'zbekiston Respublikasi huquqiy tizimining tarkibiy qismidir. Agar O'zbekiston Respublikasining xalqaro shartnomasida O'zbekiston Respublikasining qonunida nazarda tutilganidan boshqacha qoidalar belgilangan bo'lsa, O'zbekiston Respublikasining xalqaro shartnomasi qoidalari qo'llaniladi. Davlat va uning organlari, boshqa tashkilotlar, mansabdor shaxslar, fuqarolik jamiyati institutlari hamda fuqarolar Konstitutsiya va qonunlarga muvofiq ish yuritadi. Mazkur Konstitutsiyaning 16-moddaga muvofiq, ushbu Konstitutsiyaning birorta qoidasi O'zbekiston Respublikasining huquq va manfaatlariga, ushbu Konstitutsiyaning birinchi bo'limida nazarda tutilgan asosiy prinsip va normalarga zarar yetkazadigan tarzda talqin etilishi mumkin emas.

O'zbekiston Respublikasining qonunlari va boshqa normativ-huquqiy hujjatlari Konstitutsiya asosida va uni ijro etish yuzasidan qabul qilinadi. Birorta qonun yoki boshqa normativ-huquqiy hujjat Konstitutsiyaning prinsip va normalariga zid bo'lishi mumkin emas.

Binobarin, davlatimizning huquq ustuvorligi reytingida rolini oshirishda konstitutsiyaviy maqomga ega bo'lgan Konstitutsiyaviy sudning roli tobora ortmoqda. Yangi tahrirdagi Bosh qomusimiz Konstitutsiyaviy sudning rolini jiddiy ravishda oshirdi. So'nggi yillarda Konstitutsiyaviy sudning maqomi va vakolatlari sezilarli darajada kengaytirilganini alohida ta'kidlash joiz. Bosh qomusimizga ko'ra, Konstitutsiyaviy sud sudyalari qayta saylanish huquqsiz 10 yillik muddatga saylanadi. Mamlakatda referendumga chiqarilayotgan masalalarning Konstitutsiyaga muvofiqligi to'g'risida xulosa berish vakolati Konstitutsiyaviy sudga berildi. Sud har yili Oliy Majlis palatalari va Prezidentga mamlakatdagi konstitutsiyaviy qonuniylik holati to'g'risida axborot taqdim etib borishning yo'lga qo'yilgani konstitutsiyaviy qonuniylikni ta'minlashga xizmat qilmoqda.

Darhaqiqat, O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning 2025-yil 18-dekabrda "O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyaviy sudi

faoliyatini yanada takomillashtirish va zamonaviy raqamli texnologiyalarni joriy etishga doir chora-tadbirlar to'g'risida"gi farmoni Konstitutsiyaviy sud faoliyatini sifat jihatidan yangi bosqichga olib chiqish imkoniyatini yaratdi. Prezidentimiz tomonidan Konstitutsiyaviy sud faoliyatini yanada takomillashtirishning ustuvor maqsadlari etib, fuqarolar va yuridik shaxslarning konstitutsiyaviy odil sudlovga erishishi hamda ularning buzilgan huquqlarini tiklash belgilangani ularning qonuniy manfaatlarini himoya qilishga xizmat qilmoqda.

Ayniqsa, konstitutsiyaviy shikoyat instituti takomillashtirilgani ularning huquqlari va qonun bilan qo'riqlanadigan manfaatlarini himoya qilishni ro'yobga chiqarishda g'oyatda muhim konstitutsiyaviy huquqiy mexanizm ekanining yorqin dalolatidir. Endilikda fuqarolar va yuridik shaxslar o'zlarining konstitutsiyaviy huquqlari buzilgan deb hisoblasalar, muayyan qonunning Konstitutsiyaga muvofiqligini tekshirishni so'rab, to'g'ridan to'g'ri sudga murojaat qilish imkoniyatiga ega bo'ldi. Biroq bunda "ichki himoya vositalarini tugatish" (*exhaustion of domestic remedies*) prinsipi joriy etilgan bo'lib, bu fuqaro avval umumiy sudlarda o'z huquqini himoya qilishning barcha bosqichlaridan o'tgan bo'lishi kerakligini talab etilishi belgilab qo'yilgan.

Qayd etilgan farmonning asosiy maqsad va yangiliklari haqida gap borganda, eng avvalo, konstitutsiyaviy qonuniylikning samaradorligini yangi bosqichga olib chiqish, Konstitutsiyaviy sud faoliyatini bosqichma-bosqich raqamlashtirish bilan bog'liq aniq vazifalar nazarda tutilgani sohani raqamli transformatsiyalashuvning yangi imkoniyatlaridan foydalanish uchun obyektiv sharoit vujudga keltirdi. Shu jumladan, bu boradagi uzoqni ko'zlab amalga oshirilayotgan sud-huquqiy islohotlarning mantiqiy davomi sifatida konstitutsiyaviy odil sudlovga erishish kafolatlarini yanada kuchaytirishga yangi qadamlar qo'yilganining dalolatidir. Shu ma'noda Konstitutsiyaviy sudning qonun ustuvorligini ta'minlashdagi rolini yanada oshirish va "O'zbekiston - 2030" strategiyasining maqsad va vazifalariga muvofiq, islohotlarning bardavomligini ta'minlashga qaratilgan.

Mamlakatimizda sohaga oid tizimli tahlillar va bu borada jadal amalga oshirilayotgan islohotlar Konstitutsiyaviy sudning nafaqat inson huquqlari ustuvorligini ta'minlash, balki uning tashkiliy va sud ish yurituvchi faoliyatiga raqamli texnologiyalarni samarali qo'llash uchun imkoniyatlar yaratadi. Mamlakatimizda amalga oshirilayotgan keng ko'lamli demokratik islohotlarning bosh maqsadi - inson qadrini ulug'lash va uning huquqlarini himoya qilishda konstitutsiyaviy huquqiy vositalardan ham oqilona foydalanishni taqozo etadi. Bu borada nafaqat dunyoda, balki mintaqada Konstitutsiyaviy sudning o'rni va rolini yanada oshirish maqsadida raqamli texnologik tizim orqali murojaatlarni onlayn kuzatib borish va interaktiv xizmatlardan foydalanish imkoniyati kengaytirilmoqda. Shuningdek, elektron xabardor qilish, sud majlisi vaqti va joyi haqida ishtirokchilar "Sud



xabarnomasi" xizmati va my.gov.uz mobil ilovasi orqali elektron tarzda xabardor qilinishi, fuqarolarga katta qulayliklar yaratishga imkon beradi. Shu maqsadda masofaviy sud majlislarini o'tkazish, sud majlislarini videokonferens-aloqa, jumladan mobil ilovalar yordamida o'tkazish yo'lga qo'yilishi istiqbolda yangi yutuqlarni qo'lga kiritishning g'oyatda muhim omili bo'lib hisoblanadi. Belgilangan vazifalarning aniq ijrosini ta'minlash maqsadida sud tizimi to'liq elektron shaklga o'tishi kutilmoqda, bu esa O'zbekistonning xalqaro reytinglarda nufuzini yanada mustahkamlashiga ishonchimiz komil.

Yuqorida qayd etilgan farmonga ko'ra, 2026-2027-yillarda Konstitutsiyaviy sud faoliyatini raqamlashtirish dasturi amalga oshiriladi. Bunda asosiy e'tibor bosqichma-bosqich raqamlashtirish hamda "E-KSUD" axborot tizimi 2027-yil 1-avgustdan tajriba tariqasida ishga tushiriladi. Ushbu tizim murojaatlarni onlayn yuborish va ularning ko'rib chiqilish jarayonini real vaqt rejimida kuzatish imkonini beradi. Videokonferens-aloqa sud majlislarida masofadan turib, hatto mobil ilovalar orqali ishtirok etish imkoniyati yaratiladi. Elektron xabardor qilish, ishtirokchilarga sud vaqti haqida my.gov.uz yoki maxsus "Sud xabarnomasi" xizmati orqali xabar berilishining joriy etilayotganligi sohani zamonaviy rivojlantirishning istiqbollarini belgilaydi. Raqamli texnologiyalarning joriy etilishi sud faoliyatining shaffofligini oshirib, har bir fuqaroning konstitutsiyaviy huquqlarini himoya qilishda tezkorlikni ta'minlaydi.

Zamonaviy sharoitlarda O'zbekiston konstitutsiyaviy sudi faoliyatini yangi davr talablari asosida isloh qilishda xalqaro tajriba, xususan Yevropa va Osiyo davlatlarining eng ilg'or amaliyotlari inobatga olingani, g'oyatda muhim ahamiyat kasb etmoqda. Hozirgi kunda "konstitutsiyaviy vatanparvarlik"ni shakllantirish ustuvor vazifa sifatida belgilangan bo'lib, bu fuqarolarning nafaqat o'z huquqlarini bilishi, balki Konstitutsiyada belgilangan majburiyatlarini ham anglashini nazarda tutadi. Konstitutsiyaviy sudni isloh qilish jarayoni "Inson qadri uchun" tamoyiliga asoslangan.

Xulosa qilib aytganda, mamlakatimizda Konstitutsiyaviy sud faoliyatini yanada takomillashtirilishi va zamonaviy raqamli texnologiyalarni joriy etish bilan bog'liq vazifalarning ro'yobga chiqarilishi, o'z navbatida inson huquq va erkinliklarini himoya qilish borasida konstitutsiyaviy qonuniylikni mustahkamlashning g'oyatda muhim omili bo'lib xizmat qiladi.

A. ISABAYEV,
O'zbekiston Respublikasi
Konstitutsiyaviy sudining
bosh konsultanti

Men ham harbiy bo'laman!

VATAN HIMOIYACHILARI SAFIDA BIR KUN



Xabaringiz bor, joriy yilning 1-fevral kundan e'tiboran O'zbekiston Respublikasi Mudofaa vazirligi tizimidagi oliy harbiy ta'lim muassasalariga o'qishga kirish istagini bildirgan nomzodlardan arizalar qabul qilish boshlandi. Bu xabar minglab yoshlar qalbidagi orzularni uyg'otdi, ularni Vatan himoyasi yo'lga chorladi.

Ayni vaqtda respublikamizning barcha hududlarida yoshlarni harbiy ta'limga keng jalb etish, ularda Vatanga sadoqat, yuksak mas'uliyat va fidoyilik tuyg'ularini mustahkamlash maqsadida targ'ibot tadbirlari o'tkazilmoqda. Mana shunday qizg'in pallada "Men ham harbiy bo'laman!" degan ezgu maqsadni ko'ngliga tuggan 50 nafar mirzacho'llik yosh uchun Harbiy xavfsizlik va mudofaa universitetida ochiq eshiklar kuni o'tkazildi. Universitet rahbariyati, Jizzax viloyati hokimligi hamda Mirzacho'l tumani mudofaa ishlari bo'limi tashabbusi bilan tashkil etilgan mazkur sayohat yoshlar qalbidagi unutilmas kun bo'lib muhurlandi.

Salkam 4 soatlik yo'l, 200 kilometrga yaqin masofa... Orzular yo'lida masofalar ham sezilmaydi. Ular uchun erta tongdan yo'lga otlangan avtobus manzilga juda tez yetib kelgandek edi, go'yo. Alpkelbat, yosh va navqiron yigitlar universitet darvozasi oldida orkestr sadolari ostida kutib olindi. Ichkaridagi hayotga qiziqsinib boqayotgan, orzularga limmo-lim nigohlar kursant akalarining saf tortib darsga ketayotganining guvohi bo'ldi. Bu sahna yoshlarning qalbidagi orzularini yanada alanga oldirgani rost.

Shu kuni "Bu maskanda men ham o'qiyman!" degan istak yigitlarni har qadamda ilhomlantirdi. Sayohat davomida yoshlarga universitetning namunali kursanti Hosilbek G'ofurjonov hamrohlik qildi, ularga mutaxassislar tomonidan oliy harbiy ta'lim yo'nalishlari, qabul shartlari, zamonaviy o'quv-uslubiy baza va kursantlar uchun yaratilgan imkoniyatlar haqida batafsil ma'lumot berildi. Shuningdek, harbiy texnikalar va zamonaviy jihozlar bilan tanishdi, sport kompleksi va zamonaviy suv havzasini ko'zdan kechirishdi.

Professor-o'qituvchilar va kursantlar bilan ochiq muloqot esa tadbirning eng samimiy qismi bo'ldi. Savollariga aniq javob olgan yoshlar kursantlar bilan birga tushlik qilib, harbiy hayotning kundalik tartib-qoidalarini bevosita his etdi.

– Televizorda ko'rgan boshqa, o'zing guvoh bo'lib, yaqindan tanishsang, taassurot boshqacha

bo'larkan, – deydi Ixtiyorbek Bahromov. – Vatan himoyachisi bo'lishni bolaligimdan orzu qilaman. Mana yillar o'tib, orzuga yetishish harakatidaman. O'zimga ishonchim baland. Sport bilan doimiy shug'ullanaman, yillar davomida bilimimni ham mustahkamlab kelyapman. Bu yil o'qishga kirsam, o'zimni haqiqiy baxtiyor inson deb bilaman.

Bir asrlik shonli yo'lni bosib o'tgan universitet tarixidan so'z ochgan muzey ham yoshlarda katta qiziqish uyg'otdi. Har bir eksponat, har bir ma'lumot tomoshabinlarga yurt tinchligi yo'lida xizmat qilishning mas'uliyatini his ettiribgina qolmasdan, ularda faxr-u g'urur tuyg'ularini ham mavjlantirib yubordi.

Muhimi, ochiq eshiklar kuni yoshlarga faqat universitet imkoniyatlarini emas, balki o'z ichki salohiyatini ham kashf etish imkonini berdi. Har bir qadam, har bir kuzatuv ularda Vatan tinchligi va xavfsizligi yo'lida xizmat qilish sharafiga his ettirdi. Ana shu sharaflil yo'lga qadam qo'yishga bel bog'lagan yoshlar esa ertangi osoyishta kunlarimizning ishonchli qalqonlari bo'ladi.

Shohista ABDURAHMONOVA,
jurnalist



Meros



Ramazon – inson ruhiyatini poklovchi, qalbni ezgulikka yetaklovchi, go‘zal xulq-atvor va mehr-muhabbatga yo‘g‘rilgan musulmon olamining beqiyos bayramlaridan biri. Bu muborak ayyom nafsni tarbiya qilishga, sabr va qanoatni mustahkamlashga, atrofdagilarga hurmat va mehr ko‘rsatishga chorlaydi. Ayniqsa, u ko‘plab olim-u allomalar va shoir-u fozillar hayotida chuqur ma‘naviy ahamiyat kasb etib, ayniqsa Zahiriddin Muhammad Bobur hayotida turfa sinov va darbadarliklarga boy davr sifatida namoyon bo‘ladi.

“IKKI RAMAZON HAYITINI KETMA-KET BIR JOYDA O‘TKAZGAN EMASMAN...” — BOBUR MIRZONING SARGARDON HAYOTIDAGI RAMAZON...

Bobur Mirzo davlat boshqaruvida adolat, intizom va jamoat axloqini ustuvor tamoyil sifatida bilguvchi yirik davlat arbobi edi. U qay o‘lkada hukmronlik qilmasin, siyosiy barqarorlikni ta‘minlash, ijtimoiy tartibni mustahkamlash hamda jamiyat hayotiga salbiy ta‘sir ko‘rsatuvchi omillarga qarshi qat‘iy choralar ko‘rishga bor kuch-quvvatini ayamadi. Masalan, hind diyorida 1526-yilda ichkilikbozlikni rasman taqiqlash haqidagi farmonini davlat va jamiyat manfaatini ko‘zlagan siyosiy-axloqiy qadam sifatida baholash mumkin.

“Boburnoma”da bu haqda quyidagicha keltiriladi:

“...Bu orzu va osoyishtalik to‘la-to‘kis oxiriga yetgandan keyin, olam bo‘ysunishi lozim bo‘lgan farmon ijro sharafiga erishdiki, tinch saxlangan mamlakatda (Xudo ofat va xavflardan omon qilsin) mutlaqo hech bir kishi ichkilik ichishga urinmasin, uni hosil qilishga tirishmasin, ichkilik yasamasin, sotmasin va olmasin, o‘zida saxlamasin, eltmasin va keltirmasin: “Ichkilikdan qochinglar, shoyadki, najot topsangizlar”.

Zero mazkur qaror jamiyatni ma‘naviy jihatdan poklash, harbiy va ma‘muriy intizomni mustahkamlash, davlatchilik poydevorini axloqiy asoslar bilan uyg‘unlashtirishga qaratilgan edi. Bu esa Bobur shaxsiyatida din, davlat va jamiyat manfaatlarining o‘zaro mushtarak ekanini ko‘rsatadi.

Taassufki, bu ulkan qalb egasining umri doimiy harbiy yurishlar, siyosiy kurashlar va halovatsiz beomon kunlar qurshovida o‘tdi. Garchi sarosar kunlarda ham Ramazon va hayit bayramlari uning doimiy e‘tiborida bo‘lsa-da, Bobur Mirzo bu kunlarini chuqur iztirob bilan xotirlaydi:

“...O‘n bir yoshimdan beri ikki ramazon hayitini ketma-ket bir joyda o‘tkazgan emasman.

O‘tgan ramazon hayiti Ograda kelgandi. Bu odat buzilmasin deb, yakshanbada, oyning oxirgi kuni hayit qilib Sekriyga bordik. Sekriyda solingan “Bog‘i Fath”ning g‘arbi-shimol tarafidagi toshsupa tayyor bo‘lgan edi. Shu supa ustiga oq uy tikib, o‘sha yerda hayit qildik...”

Iqtibosdan shoh va shoirning musofirlik qismati naqadar mahzun va dolg‘ali ekani ayonlashadi. Quyida “Boburnoma”da tilga olingan Ramazon va hayit bayramlari bilan bog‘liq ayrim voqealarga diqqatingizni tortar ekanmiz, ulardagi achchiq qismat talxini birgalikda tortamiz.

Bobur Mirzo hayotida bu muqaddas kunlar goh alamli, goh

suronli, goh fojiali, goh beqaror damlar sifatida namoyon bo‘ladi.

Ayniqsa, 12 yoshli o‘spirinning saltanat taxtiga qo‘ygan ilk qadami ham aynan Ramazon oyi bilan mushtarak bog‘lanadi:

“Tangri taoloning inoyati va koinot sarvari bo‘lgan hazrat Rasuli akramning shifoati, pokko‘ngil chahoryorlarning himmati bilan seshanba kuni, RAMAZON oyining beshinchisida, sakkiz yuz to‘qson to‘qqizinchi yili Farg‘ona viloyatiga o‘n ikki yoshda podshoh bo‘ldim”.

Demak, ushbu muborak oy uning hayotida nafaqat tarixiy, balki ma‘naviy mas‘uliyat va ulg‘ayish ramzi sifatida ham namoyon bo‘ladi.

Taqdir gardishini qarangki, uning otasi Umarshayx mirzoning vafoti haqidagi alamli xabarni ham u aynan Ramazon oyida eshitadi:

“...Umarshayx mirzo bilan o‘sha fojia yuz berganda, men Andijonda chorbog‘da edim. Seshanba kuni, ramazon oyining beshinchisida bu xabar Andijonga yetib keldi. Iztirob bilan otlanib, yonimdagi navkar va savdarlarim bilan qo‘rg‘onga yo‘l oldim...”

Podshohlikka ko‘tarilish ham, ota firog‘i ham Ramazonda yuz berayotgani sinchi o‘quvchini o‘ylantirmasdan qo‘ymaydi.

Bobur Mirzoning darbadarlik va harbiy-siyosiy yurishlardagi mashaqqatlariga ham bu oy qayta-qayta guvoh bo‘lgani rost. Masalan, qishlov izlab yurilgan, siyosiy ittifoqlardan umid uzilgan, xavf-xatarlar kuchaygan bir pallada quyidagilarni yozadi:

“...Qishlov bahonasi bilan Hirotidan sha‘bon oyining yettinchisida chiqib, Bodg‘is yerlarida, toki viloyatlarga narsa yig‘ish va ish-kuch to‘plash uchun ketganlar kelib qo‘shilsinlar deb, har yurtida bir kun-ikki kun to‘xtab ko‘char edik. To‘xtash na kutish shu darajada bo‘ldiki, Langari Mirg‘iyosdan ikki-uch ko‘ch o‘tganda ramazon oyi ko‘rindi. Viloyatlarga ish-kuch uchun ketgan yigit-yalangdan ba‘zisi kelib qo‘shildi, ba‘zisi yigirma kun, bir oydan so‘ng Kobulga keldilar...”

Ushbu parchada Bobur hayotidagi siyosiy parokandalik, harbiy kuchlarni bir yoqadan bosh chiqarishga urinishlar va doimiy mushkulotlar ro‘y-rost ochib beriladi. Shunday murakkab vaziyatda ham “Ramazon oyining ko‘rinishi”ga diqqat qaratilishi esa ulkan qalb egasining e‘tiqod va iymoni mustahkamligiga ishoradir.

Bobur Mirzo darbadarlik yillarida ham Ramazon oyini o‘zgacha mehr va shukronalik bilan tilga oladi. Bu hol “Boburnoma” sahifalarida ayniqsa ta‘sirchan



tarzda namoyon bo'ladi. Safar, sovuq, ochlik va xavf-xatarlar ichida kechgan hayot manzarasi orasida Ramazon va hayit kunlari go'yoki bir taskin manbai sifatida tilga olinadi:

"...Xufton payti, Yakka O'langga kelib tushdik. Yakka O'lang eli biz kelib tushgandayoq xabar topdilar. Issiq uylar, semiz qo'ylar, otga o't va pichan benihoya, o't yoqmoqqa o'tin va tezak behad hisobsiz edi. O'shanday sovuq na qordan qutulib, bunday keng va issiq uylar topmoq, unday mashaqqat va balodan xalos bo'lib, buncha ko'p non va semiz qo'ylar topmoq bir huzurdirkim, buni bunday mashaqqatlarni ko'rganlar biladi, shunday bir farog'atdirki, buni o'shanday balolarni boshdan kechirganlar fahm qiladi. Xotirjam va ko'ngil tinch holda bir kun Yakka O'landa turdik. Yakka O'landan ko'chib, ikki yig'och yo'l yurib to'xtadik. Ertasi RAMAZON HAYITI bo'ldi".

Parchadagi tasvirlar Ramazon hayitining safar va mashaqqat ichida o'tganini, qiyinchilik va beorom lahzalar Bobur qalbida qanchalik iz qoldirganini anglash mumkin.

Darvoqe, Ramazon oyida ham davlat ishlari, harbiy harakatlar va ma'muriy qarorlar jadal suratlarida davom etgan. Navkarlikka qabul qilish, in'om berish, iftor marosimlari ijtimoiy hayotning ajralmas qismi sifatida aks ettiriladi:

"...Oyning yigirma to'qqizinchisida, juma kuni Mir Xurd Hindolga bekota bo'lib xizmatga kirdi va menga ta'zim qildi. Ming shohruxiy sochiq kirgizdi. RAMAZON OYINING beshinchisida, chorshanba kuni Tulak ko'kaldoshning qoshidan Barlos jiki ismli navkar uning xabarini keltirdi. U yerlarga o'zbek chopqunchisi kelgan ekan, Tulak ularning qarshisiga chiqib, urushib bosibdi. Bitta tirik o'zbek va bitta bosh keltirdi. Oyning sakkizinchisida, shanba kuni kechqurun Qosimbekning uyiga borib og'iz ochdik. Bitta egarlangan ot tortiq qildi. Yakshanba kuni Xalifaning uyida og'iz ochildi. Bitta egarlangan ot peshkash qildi".

Ramazon oyida yuz bergan janglar Bobur hayotining yana bir qirrasini ochib beradi. Mazkur oydagi harbiy harakatlar haqida u shunday yozadi:

"Ramazon oyining o'n uchinchisida, shanba kuni dushman urush boshlaydi. Lekin urushib hech nima qilolmaydilar. Urush ketayotgan paytda birdan yig'ib qo'yilgan xas-xashak, kapalar va jar ichiga bir yo'la o't ketadi, qo'rg'on ichi tandirdek qiziydi. Qo'rg'on devorlari ustida yurib bo'lmay qoladi va ular qo'rg'onni oladilar. Ikki-uch kundan so'ng bizning qaytganimiz haqidagi xabarni eshitib, dushman Dalmudga qarab jo'naydi. O'sha kuni ham o'n kuro'hcha yo'l yurib, Sekriy viloyatining Jalesar degan qishlog'i yonida Saru daryosi yoqasida to'xtadik".

Ramazon oyidagi yana bir jang tasviri quyidagicha keltiriladi:

"Ramazon oyining yettinchisida, payshanba kuni Bangola va Bihardan xotirjam bo'lib, Sarvaar tarafga Biban va Boyazidni daf qilish uchun yurish boshladik. Bu g'animlar bilan jang qilib, ularga shikast yetkazdik. Undan keyin Xariyd va Sekandarpurni sayr qilib, bu viloyatlardan xotirjam bo'lib, ilg'or bilan poytaxtga qarab jo'nadik va oz fursatda u yerga kirib keldik".

Ushbu voqealar tahlili shuni ko'rsatadiki, Bobur Mirzo hayotida Ramazon ko'pincha osoyishta oy sifatida emas, balki davlatchilik, harbiy kurash va siyosiy jarayonlar bilan birga kechadi.

Shoh va shoir Ramazon oyini shunchalik intiqlik bilan kutar ediki, hatto yangi oy – hilol chiqishi ham uning doimiy

e'tibor markazida bo'lgan. Bu hol Boburnomada aniq qayd etilgan:

"...Oyning yigirma to'qqizinchisida, dushanba kuni mana shu To's daryosi qirg'og'i manzilimiz edi. Bu oqshom, garchi, havo uncha bulutsiz bo'lmasa ham, bir necha kishi oyni ko'rди va qozining huzurida guvohlik berishdi. Yangi oyning boshlanishi aniq hujjatlandi. Seshanba kuni tongda HAYIT NAMOZINI o'qib, yo'lga tushdik. O'n kuro'h yo'l yurib, Tayikka bir kuro'h qolganida, Go'yi daryosi qirg'og'ida to'xtadik. Peshin namoziga yaqin ma'jun yedik..."

Muallif bir necha o'rinda "ma'jun" iste'mol qilganini tilga oladi. "O'zbek tilining izohli lug'ati"da ma'jun turli dorivor gilyohlar, ziravorlar, asal yoki shakar qiyomiga ba'zan afyun qo'shib tayyorlanadigan, sharq tabobatida quvvat va darmon

beruvchi shifobaxsh vosita hisoblangan. Ayrim manbalarda u "chordori" deb ham ataladi. Doimiy yurishlar, oziq-ovqat tanqisligi va jismoniy mashaqqatlar sharoitida Bobur va uning safdoshlari tanani quvvatlantirish uchun shunday vositalardan foydalanar edi.

Bunday kuzatuvlar asarning bir qancha o'rinlarida takrorlanadi:

"...Oyning oxirida, yakshanba kuni Jo'yi Shohiydan ko'chib, Qirqariqqa kelib tushdik. Men bir necha xos kishilarim bilan solga tushdim. Hayit hilolini shu joyda ekanimizda ko'rdik... Hayit tongida, dushanba kuni yo'lga tushdik. Yo'lda xumorni daf qilish uchun ma'jun yedik".

Demak, hayit Bobur hayotida ko'pincha yo'l ustida, jang oldidan yoki siyosiy harakatlar jarayonida nishonlangan.

Yana bir Qurbon hayiti munosabati bilan u bir voqeani xotirlaydiki, unda shoirning yuksak badiiy mahorati, o'zidan qoniqmaslik xislatlari yaqqol namoyon bo'ladi:

"...Qurbon hayiti Shohruxiyada o'tdi. To'xtovsiz yurib, xon huzuriga – Toshkandga bordim. Bu ruboiyni aytib edim. Yaxshi qofiyalashtirishda ikkilangandim. U paytda she'r istilohlari talablariga unchalik qattiq amal qilmasdim. Xon xushta'b kishi edi, she'r bitardi, garchi tuzukroq g'azali kam bo'lsa-da, bu ruboiyni xonga manzur etib, taraddudimni arz qildim. Ko'ngil tingudek qoniqarli javob topmadim. Aftidan, she'r istilohlari talablariga kamroq rioya qilib yozilgandir. Ruboiy ushbudir:

**Yod etmas emish kishini
mehnatta kishi,
Shod etmas emish ko'ngulni
g'urbatta kishi.
Ko'nglum bu g'ariblikka shod
o'lmadi hech,
G'urbatta sevunmas emish,
albatta, kishi".**

Ushbu ruboiyda g'ariblik va darbadarlik dardi mujassam. Ayniqsa, "G'urbatta sevunmas emish, albatta, kishi" misrasi Boburning ichki iztirobini ochiq ifoda etadi. Muallifning ruboiyga nisbatan tanqidiy munosabati esa uning o'ziga nisbatan naqadar talabchan va badiiy mezonlarga mas'uliyat bilan yondashganini ko'rsatadi.

Xulosa o'rnida aytish mumkinki, Zahiriddin Muhammad Bobur hayoti misolida Ramazon oyi darbadarlik, jang-jadallar va harbiy harakatlar bilan uyg'un holda kechgan. Shu ma'noda, Bobur Mirzoning Ramazon oyiga oid xotiralari nafaqat tarixiy manba, balki har birimiz uchun ma'naviy saboq hamdir. Ya'ni kim qanday sharoitda bo'lmasin, e'tiqod va mas'uliyatni saqlab qolsagina o'zi ko'zlagan ulkan maqsadlar ostonasiga yetib boradi.

**Kapitan
Bobur ELMURODOV,
"Vatanparvar"**



Harbiy-vatanparvarlik targ'iboti

HOKIM BILAN MULOQOT

Yangi O'zbekistonni barpo etish yo'lida amalga oshirilayotgan keng ko'lamli va izchil islohotlar mamlakatimizda harbiy xizmat nufuzini yanada oshirish, armiya va xalq birligini mustahkamlashga xizmat qilmoqda. Ayniqsa, yoshlar qalbida Vatanga sadoqat, yurt taqdiri uchun mas'uliyat va faxr tuyg'usini shakllantirish davlat siyosatining ustuvor yo'nalishlaridan biri sifatida izchil davom ettirilmoqda.

Xayrobod garnizonida muddatli harbiy xizmatni muvaffaqiyatli yakunlayotgan askarlar bilan o'tkazilgan ochiq muloqot ham mana shu ezgu maqsadga xizmat qilishi bilan qimmatli bo'ldi. Tadbirida Surxondaryo viloyati hokimi Ulug'bek Qosimov ishtirok etdi.

Uchrashuv samimiy va ochiq ruhda kechdi. Askarlar o'zlarining kelgusi rejalari, kasbiy maqsadlari, ta'limni davom ettirish yoki mehnat faoliyatini boshlash borasidagi fikr-mulohazalari bilan o'rtoqlashdi. Ular xizmat davrida orttirgan tajriba, intizom va hayotiy saboqlar kelgusi faoliyatida mustahkam poydevor bo'lishini alohida ta'kidladi.



Viloyat rahbari yoshlarga oliy va professional ta'lim muassasalarida o'qishni davom ettirish, zamonaviy kasb-hunar egallash, tadbirkorlik faoliyatini yo'lga qo'yish hamda jamiyat hayotida faol ishtirok etish yuzasidan aniq tavsiya va maslahatlar berdi. Shuningdek, harbiy xizmatni



sharaf bilan o'tagan yoshlar uchun yaratilayotgan imkoniyat va imtiyozlar haqida ham atroflicha fikr yuritdi.

Muloqot chog'ida "Vatan himoyachisi" degan yuksak nom faqat xizmat davri bilan cheklanmasligi, balki butun umr davomida sadoqat, halollik va mas'uliyatni talab etishi alohida urg'ulandi. Zero harbiy safda shakllangan intizom, qat'iyat va jasorat fazilatlari fuqarolik hayotida ham insonni yetakchi va tashabbuskor shaxsga aylantirishi e'tirof etildi.

Uchrashuv davomida yoshlar tomonidan bildirilgan taklif va tashabbuslar qo'llab-quvvatlandi. Ayniqsa, ularning yurt taraqqiyotiga daxldorlik hissi, mamlakatimizda kechayotgan yangilanish jarayonlarida faol ishtirok etishga tayyor ekani mamnuniyat bilan qayd etildi.

Bunday ochiq muloqotlar yoshlarning kelajakdagi hayotiy yo'lini aniq belgilab olishi, o'z salohiyatini to'liq namoyon etishi hamda jamiyatda munosib o'rin egallashida muhim ahamiyat kasb etadi.

**III darajali serjant
Akbar AHMEDOV,**
Termiz garnizoni

Kiberxavfsizlik oyligi



OGOHLIK VA MAS'ULIYAT



Bugungi kunda axborot texnologiyalari hayotimizning barcha sohalariga kirib kelgan bir davrda yashayapmiz. Raqamli dunyoning tezkor rivojlanishi bilan birga, internet va elektron xizmatlar orqali sodir etiladigan tahdidlar ham ortib bormoqda. Shu bois harbiy xizmatchilar va davlat organlari xodimlari uchun axborot xavfsizligini ta'minlash va shaxsiy hamda davlat ma'lumotlarini himoya qilish bugungi kunning eng muhim vazifalaridan biri hisoblanadi.

Markaziy harbiy okrug boshqaruv apparati va Samarqand garnizonidagi harbiy qism harbiy xizmatchilari uchun "Kiberxavfsizlik" oyligi doirasida "Ogohlik – eng kuchli kiberhimoya" mavzusida profilaktik tadbir tashkil etildi.

Uchrashuv Samarqand viloyati Ichki ishlar boshqarmasi Kiberxavfsizlik bo'limi mutaxassislari bilan hamkorlikda o'tkazildi. Tadbir axborot makonida yuzaga kelayotgan tahdidlar va ularning oldini olish masalalariga bag'ishlandi hamda harbiy xizmatchilar va mas'ul xodimlarning ayni yo'nalish bo'yicha bilim va ko'nikmalarini mustahkamlashga xizmat qildi.

Uchrashuvda zamonaviy axborot makonida yuzaga kelayotgan turli tahdidlar batafsil yoritildi. Xususan, shaxsiy ma'lumotlarni noqonuniy qo'lga kiritish, bank plastik kartalaridan fribgarlik yo'li bilan foydalanish, ijtimoiy tarmoqlar orqali amalga oshirilayotgan aldov sxemalari haqida real misollar asosida ma'lumotlar berildi. Tadbir davomida jinoyatlarning kelib chiqish sabablari, oqibatlarini va oldini olish mexanizmlari atroflicha tahlil qilindi.

Kiberxavfsizlik bo'yicha mutaxassislardan tomonidan yagona identifikatsiya tizimi (OneID) login va parollarini muntazam yangilash,

murakkab va ishonchli kombinatsiyalardan foydalanish kerakligi ta'kidlandi. Shuningdek, ikki bosqichli tasdiqlash tizimini yoqish, fuqarolar nomiga ruxsatsiz kredit rasmiylashtirilishining oldini olish uchun cheklov o'rnatish tartibi, noma'lum manbalardan yuborilgan APK fayllar va zararli ilovalarni yuklab olmaslik yuzasidan tushuntirishlar ham berildi, akkaunt ulangan qurilmalarni muntazam tekshirish, antivirus dasturlaridan to'g'ri foydalanish, operatsion tizim va ilovalarni o'z vaqtida yangilab borish kabilar bo'yicha to'liq ma'lumotlar ulashildi.

Shuningdek, tadbir davomida kiberjinoyatchilik bilan bog'liq global statistik ma'lumotlar ham taqdim etildi. Masalan, oxirgi yillarda ijtimoiy tarmoqlarda sodir etilgan fribgarlik holatlari 30–40 foizga oshgani kuzatilmoqda. Bu esa harbiy va davlat xizmatchilarini yanada ogoh bo'lishga undaydi.

Tadbir yakunida axborot xavfsizligini ta'minlash har bir foydalanuvchining shaxsiy mas'uliyatiga bevosita bog'liqligi, ogohlik va ehtiyotkorlik esa kiberjinoyatchilikka qarshi kurashishda eng samarali vosita ekani alohida ta'kidlandi.

Zero, ogohlik – eng kuchli kiberhimoya, mas'uliyat esa uning mustahkam poydevori. Shu bilan birga, bunday tadbirlar nafaqat harbiy jamoani, balki keng jamiyatni ham kiberxavfsizlik madaniyati bilan tanishtirishga xizmat qiladi.

Parvina ABDUXAMIDOVA,
Markaziy harbiy okrug matbuot xizmati
bosh mutaxassisi

Keling, kitob o'qiymiz!



She'r nima, shoir kim? Bu savollarga har kimda turlicha javob bo'lishi mumkin. Chunki har kimning o'z haqiqati, o'z qarashlari-yu, o'z dunyosi bor. Na o'qirmanlar, na olimlar tomonidan aniq bir javob keltirilmagan. Men esa shoir Nodir Jonuzoqning she'rlaridan shu savollarga javob axtarmoqni istadim.

IJOD BULOQ'IDAN SO'Z SIPQORGAN SHOIR

Muso Toshmuhammad o'g'li Oybek shunday deydi: "Kitob mutolaasi sizni qudratli ijod bulog'iga boshlaydi". O'qirman sifatida ayta olishim mumkinki, adabiyotga, she'riyatga oshno bo'lgan odamdan yomonlik chiqmaydi. Men bugun sizlarga tuhfa etajak shoirim ham adabiyot ixlosmandlarini yaxshiliklarga oshno tutinishida bir ko'prik bo'ladi, desam, mubolag'a bo'lmas.

*"Yarim kecha kelar bostirib,
Bosh uradi – bermaydi uyqu.
Muqom qilar yurakka kirib,
Toychoq kabi navqiron tuyg'u.*

*Biram sarkash. Eplamak qiyin.
Ko'kka sapchir o'xshar Buroqqa.
Qofiyaga tizginlab keyin
Hibs etaman mahkam Turoqqa".*

Misralar strukturasi nasriylashtirsak: "Yarim kecha bostirib kelib, bosh urib – uyqu bermaydi", keyingi misralar: "Toychoq kabi navqiron tuyg'u, yurakka kirib muqom qiladi". Ko'rib turganimizdek, birinchi gap o'qirman uchun savol shaklida. Aynan nima bostirib kelib, uyqu bermasligi haqida biroz o'yg'a toldiradi. Shoir keyingi misralar orqali bu savolga javob beradi. O'xshatilayotgan narsa toychoq, tuyg'uning shoir xayol qilgan ko'rinishi. Ayni shu so'z orqali shoir "imzosi"ni ko'rishimiz mumkin. Topilma navqiron tuyg'uning toychoqqa o'xshatilishi. O'sha toychoq yurakka kirib, muqom qiladi. Muqom nima? O'zbek tilining izohli lug'atida muqom so'zi: "Raqsda musiqa ritmiga mos harakat", degan ma'noni bildiradi. Bu to'rtlikdan shunday xulosa qilishimiz mumkinki, yarim kechasi tuyg'u yurakka kirib, raqsga tushadi. Bu shoirni ijod qilishga undaydi va shoir qog'ozga to'kiladi.

Keyingi to'rtlikning nasriy strukturasi shunday: "Biram sarkash. Eplamak qiyin. Buroqqa o'xshab ko'kka sapchiydi. Qofiyaga tizginlab keyin turoqqa mahkam hibs etaman". Dastlabki ikki gapni tushunishimiz mumkin o'z o'rnida. Uchinchi gapda esa o'xshatilayotgan narsa tuyg'u, o'xshayotgan narsa buroq. Buroq nima? Islom olamida juda tez chopadigan va uchadigan, otga o'xshash jonotning nomi sifatida keladi.

Endi butun boshli she'rni tahlil etadigan bo'lsak, yarim kechasi toychoqqa o'xshab yurakka kirgan tuyg'u, buroq kabi ko'kka sapchigan vaqtida, shoir uni tizginlab, turoqqa joylaydi. Shoirimizning ijod haqidagi tasavvuri shunday va o'ziga xos o'xshatishlar bilan bu she'r shaklida qog'ozga tushgan.

Shoir turli mavzularda qalam tebratgan. U o'zi yashab, his qilgan tuyg'ularnigina qog'ozga tushiradi. Sevgi-muhabbatni alqamagan, kuylamagan shoir bo'lmas kerak. Lekin har biri o'ziga xos ifoda usulidan foydalangan. Albatta, shoirimizning ham bu mavzudagi she'rlari bisyor. Yana shunday bir tuyg'u borki, uning nomini "sog'inch" deb ataymiz. Tug'ilib o'sgan qishlog'idan uzoqda yurgan shoirning bir qancha shu mavzudagi she'rlarini o'qishimiz mumkin. Shoirning "Xalat" nomli she'ri bunga misol bo'la oladi. Bir farzandning onaga bo'lgan sog'inch bor bo'y-basti bilan ko'ringan, desam, mubolag'a bo'lmaydi. Men esa shoirning "chilla" (*turkum*)siga murojaat etmoqchiman. Dastlab turkumning nomiga to'xtalsak. Diniy kitoblarda chilla: "Sufiy yoki muridning yakka o'zi alohida xona (*hujra*)da, odamlardan yashirilib, qirq kun davomida toatibodat qilishi", deya keltiriladi. Shoirning qirqta to'rtlikdan iborat bu turkumini tahlil qilish uchun eng kamida bitta magistrlik ishini yozish kerak. Men shu qirqta to'rtlikning bittasini sizga ilinmoqchiman.

*"Ollohim, lutf etding:
"Orzung ne – tila?!"
Senga maqsudimni aytay qay til-la?
Aslida Olami Kubrodan edim –
Qaytdimmi?! Bu umrim kichik bir chilla..."*

Bu to'rtlikning ma'nosini shoirning ilohiy aslini eslash, dunyoga kelishining ma'nosi va qaytishdagi ruhiy izlanish deya talqin qilish mumkin. Bu holat adabiyotshunoslikda "Katarses" (*poklanish, tozalanish*) deb nomlanadi. To'rtlikning dastlabki misrasida ichki monolog yuzaga kelgan. Ya'ni mehribon va rahmdil Olloh "Orzung ne – tila?!" deya savol so'rganida, shoir ming iztehzoz bilan shunday deydi: "Senga maqsudimni aytay qay til-la?" To'rtlikning kuchiga kuch qo'shib turgan makroso'z "Olami Kubro" iborasi deb o'yladim. Bizning shoir so'nggi ikki misra orqali shunday demoqchiki, cheksizlik, makon va zamon, jamiki borliqning biriman, bu yerdagi umrim bir chilladek gap. Barchamiz boshlang'ich nuqtaga qaytamiz...

Men sevimli shoirimning she'rlarini o'qiganimni, uqish uchun yozishga jazm etdim. Yuqorida bergan savollarimga ham o'zim uchun javob topoldim, deb o'ylayman. Bir yosh o'qirmanning tahlilidagi xato va kamchiliklariga ko'z yumasiz, degan umiddaman. Gar ortuq so'z dedim...

Bahodir JOVLIYEV,
yozuvchi



NAVOIY

Do'stlar, bir zot kelmoqda asrlarni oralab,
Ezgulikni ulug'lab, razolatni qoralab,
Kaftida quyosh tutib, zulmat ko'ksin poralab,
Har ko'ngildan ko'ngilga safar qilar Navoiy,
Dillarni asir aylab, zafar qilar Navoiy.

Ko'z ochgaydir toshlar ham tegsa
qutlug' hassasi,
Qalblar buloqqa do'nar – asotirli "Xamsa"si,
Ikki dunyoga bezak ham suvrati, ham sasi:
Oshiqlar barhayotdir – zavol bilmas Navoiy,
Zamonlar shiddatini ko'zga ilmas Navoiy.
Qaqnus, Semurg' tilida – yaxshilarning hayrati,
Nafis majlislar tuzmish Layli, Shirin hay'ati,
Pisand emas Iskandar, Dorolarning haybati,
Yetti sayyorani ham qo'lga oldi Navoiy,
Yulduz so'zlarni oydin yo'lga soldi Navoiy.

Oltin misralar tiza yuksaltdi ishq zinasin,
El-ulusga ochdi u maxfiy Haq xazinasin,
Besh asrdan oshdikim, tuganmas ganjinasin

Ayamasdan ulashar saxiy vazir Navoiy,
Har ko'ngilda tikladi, boqiy qasr Navoiy.

Oshiqlarning shohi u, shoirlar avliyosi,
Tomirlarni yoritgay har hikmatin ziyosi,
Adabiyot mulkida yo'qdir tengi, qiyosi,
Kim qalamga suyansa, shaksiz, piri Navoiy,
Yaratganning oshkor va pinhon siri Navoiy!

Xuruj qilsa, hasrat, oh – ko'nglingga
quloq tutgay,
Goh qo'shilib yig'lar u, goho kulib ovutgay,
Ruhingni ko'targaydir, garchi o'zi qon yutgay,
Har bayti bir tumordir – balogardon Navoiy,
Oshiqlarning dardiga davo har dam Navoiy.

Ey, birodar, qarodan yuz o'girgil – oqqa kel,
Bul g'animat chog'larda dilni
qutqarmoqqa kel,
O'zlikni anglay desang, bu kun
Milliy bog'ga kel –
Har niholga nigohbon, panoh erur Navoiy,
Millat uchun abadiy mayoq erur Navoiy!

Nodir JONUZOQ,
O'zbekiston Yozuvchilar
uyushmasi a'zosi,
shoir

Buyuk ne'mat

Men harbiy oilada tug'ilganman. Otam harbiy aviatsiya muhandisi. Uzoq yillar xizmat qilib, 2017-yili pensiyaga chiqdi. Harbiy bilim yurtini tamomlab, xizmatni Jizzaxda boshlagan dadajonim asli vodiylilik. Biz esa Chirchiq shahrida ulg'aydik. Taqdir ekan, yillar o'tib, men ham harbiy xizmatchiga turmushga chiqdim. Farzandim esa Qoraqalpog'iston zaminida dunyoga keldi.

Harbiyning hayoti – xarita ustidagi chiziqli emas, tirik taqdir. Bir qarasang, tog'lar bag'rida, bir qarasang, qumliklar orasida. Vodiya to shimoliy sarhadlarga cho'zilgan yo'l – mening Vatanim, bolamning ilk qadami tushgan zamin.

Sergak tonglar

Mustaqillikning ilk yillari... Davlat endi-endi oyoqqa turayotgan palla. Harbiy sohada esa faqat sabotlilar qolgan edi. Onamning bag'rida orom olayotgan bolaligim hali xo'roz qichqirmasdan eshik taqillashi bilan uyg'onib ketardi. Yig'in signali. Choparning do'rillagan ovozi. Onam shoshilinch dadamni kuzatar, biz esa otam ortidan uzoq tikilib qolardik.

1999 – 2005-yillar... oynayi jahondan kelayotgan xavotirli



SHUKRONALIK

xabarlar harbiy shaharchadagi onalarning yuragiga vahima solardi. Xufton mahali bolasini bag'riga bosib, yorini kutgan ayollar, tongga yaqin esa charchoq va umid orasida uxlab qolardi. Ota-onamning yoshligi ana shunday yillarda o'tdi...

O'sha kezlarda dadamning maoshi katta emasligini ota-onamning shivirlaridan sezardim. "Hali hammasi oldinda, onasi", – derdi dadam. Lekin bir narsa bor edi – matonat. Matonat ortidan erishilgan bugungi yutuqlar...

Bobo hovlisidagi farovonlik

Dadam pensiyada. Onam ikkovlashib bobomdan qolgan hovlida tomorqa qiladi. "Bu bolamga, bu nabiramga", deb qovun, pomidor, bodring ekadi. O'ttizdan

oshgan bo'lsak-da, ular uchun hali ham bolamiz. Har safar uyga borsak, dasturxonga ilingan loviya, kartoshka ortida mehrning ta'mi bor.

Vaqt aylanib kelganda...

2021-yilning oxirida ota-onam Qoraqalpog'istonga, biznikiga mehmonga keldi. Zamonaviy binolar, turarjoylar, ma'naviyat va ma'rifat markazi, harbiy gospiatal...

Dadam sukut bilan atrofqa qarab turdi.

– Harbiy okruglar orasida faqat Shimoli-g'arbiy harbiy okrugda bo'lmagan ekanman, – dedi hazil aralash. – Bizning davrlarda bunday sharoitlar qayoqda edi? Yoshlik ortga qaytsa-yu, yana xizmat qilsam...

Ularning ko'zlarida sog'inchi va g'urur barobar edi. Chunki bugungi imkoniyatlar kechagi fidoyilik ustiga qurilgan. O'sha paytda iqtisod ko'tarmasdi, sharoit yetarli emasdi. Ammo vatanparvar insonlarning jasorati bor edi. Ana shu jasorat bugungi farovonlikka poydevor bo'ldi.

Avlodlar davomiyligi

Men harbiyning qizi sifatida ulg'aydim. Harbiyning rafiqasi bo'ldim. Farzandim esa sarhadlar bag'rida tug'ildi. Taqdirimiz harbiylikka daxldor. Lekin bu faqat kasb emas – bu tarbiya, bu qarash, bu hayot falsafasi.

Harbiy oilada ulg'aygan bola sabrni erta o'rganadi. Kutib yashashni, yurakdagi xavotirni tabassum ortiga yashirishni o'rganadi. Va eng muhimi – Vatan degan so'zning vaznini his qiladi.

Bugun imtiyozlar davri. Imkoniyatlar eshigi ochilgan palla. Zamonaviy sharoitlar, munosib maosh, e'tibor va g'amxo'rlik. Lekin harbiyning yuragi o'zgarmagan, u hali ham sarhadda sergak.

Otamning bir gapi yodimda: "Harbiylik faqat qurol tutish emas. Bu orqada turgan oilang, farzanding, Vatanning oldidagi mas'uliyat.

Men shu mas'uliyat bilan yashayman. Chunki sarhadlar orasida ulg'aygan taqdirim menga bir haqiqatni o'rgatgan: tinchlik meros emas, himoya qilinadigan ne'mat".

Shohista ABDURAHMONOVA,
jurnalist

Balli, ayollar!

Sharqiy harbiy okrugda "Balli, ayollar!" ko'rik-tanlovining okrug bosqichi bo'lib o'tdi. Xotin-qizlarning ijtimoiy faolligini oshirish, ularning iste'dod va salohiyatini qo'llab-quvvatlash, milliy qadriyatlarni keng targ'ib etish maqsadida tashkil etilgan tadbir bayramona kayfiyat, samimiy muhit va o'zaro hurmat tamoyillari asosida o'tdi.



NAZOKAT VA ZEHN UYG'UNLIGI



Tanlovda harbiy qismlarda o'tkazilgan saralash bosqichlarida g'olib bo'lgan ishtirokchilar qatnashdi. Unda har bir ishtirokchi nafaqat o'z bilim va mahoratini namoyon etdi, balki harbiy jamoalarda faoliyat yuritayotgan xotin-qizlarning tashabbuskorligi,

fidoyiligi va jamiyat hayotidagi o'rnini ham yorqin ifoda qildi.

Bellashuv shartlari mazmunan boy va rang-barang bo'ldi. "Biz – baxtiyor ayollarmiz!" shartida ishtirokchilar o'z hayotiy qarashlari, Vatanga sadoqati, oilaviy qadriyatlarga hurmati hamda farzand

tarbiyasidagi mas'uliyati haqida mazmunli chiqishlar qildi. "Qadimiy milliy liboslar – madaniy merosimiz" shartida esa milliy an'analar va urf-odatlarimiz sahna ko'rinishlari orqali namoyon etilib, tomoshabinlarda katta taassurot qoldirdi.

Shuningdek, "Darts" sharti ishtirokchilarning epchilligi va aniqligini sinovdan o'tkazdi. "Uddaburonlar" sharti esa qatnashchilarning topqirlik va tezkor fikrlash qobiliyatini ochib berdi. "Bahr-u bayt" bellashuvi tanlovga alohida ma'naviy ruh bag'ishlab, ishtirokchilarning badiiy tafakkuri, she'riyatga mehri va so'z boyligini namoyish etdi.

Yakuniy natijalarga ko'ra, Namangan garnizoni sharafiga himoya

qilgan Iroda Hoshimova 1-o'ringa sazovor bo'lib, bellashuvning Mudofaa vazirligi bosqichiga yo'llanmani qo'lga kiritdi.

Tadbir yakunida g'olib va sovrindorlar diplom, esdalik sovg'alar bilan taqdirlandi.

Mazkur ko'rik-tanlov harbiy jamoalarda xotin-qizlarning o'rni va nufuzini mustahkamlash, ularning ma'naviy-ma'rifiy salohiyatini yuksaltirish hamda oilalarda sog'lom muhitni qaror toptirishga xizmat qilmoqda.

Dilorom MAMATOVA,
Sharqiy harbiy okrug xotin-qizlar
va harbiy xizmatchilarning
oila a'zolari bilan ishlash
bo'yicha yetakchi mutaxassisi

Ehtirom

KO'HITANG TOG'IGA

yondashgan sabot



Pomir-Oloy tog' tizmasining janubi-g'arbida, Ko'hitang tog'i etaklarida qadimiy Zarabog' qishlog'i bor. Nomi "oltinli bog'" ma'nosini anglatuvchi bu mo'jaz go'sha asrlar osha ma'rifat va zakovat ziyosini sochib keladi. Shu bois bo'lsa kerak, u nafaqat go'zal tabiati, balki ulug' insonlari bilan ham el orasida shuhrat qozongan.

Zarabog' mamlakatimizda katta obro'-e'tiborga ega Qulmamatovlar sulolasining ham maskani. Bu nomdor shajarada o'z davrining yetuk va ma'rifatli zotlarining nomlari o'rin olgan: uch nafar fan doktori, olti nafar fan nomzodi, yuzlab oliy ma'lumotli mutaxassis. Bu raqamlar bir avlodning ilm-fanga sadoqati, ma'rifatga muhabbatini ifoda qiladi.

Ana shu sulolaning munosib vakillaridan biri filologiya fanlari doktori, professor, Turon fanlar akademiyasi akademigi Do'stmamat Qulmamatovdir. U kishining hayot yo'li va ilmiy faoliyati haqida o'ylar ekanman, Abdulloh ibn Abbos (r.a.) rivoyat qilgan hikmat beixtiyor yodga tushadi: **Sulaymon alayhissalomga ilm, mol va mulkdan birini tanlash ixtiyori berilganda, u zot ilmni ixtiyor etgan va ilm barakati bilan mol-u mulkka ham erishganlar.** Do'stmamat aka ham hayot so'qmoqlarida aynan shu ilm-fan yo'lini tanladi. Bu yo'l oson emas: olimning "yostig'i toshdan" bo'ladi, mashaqqati ko'p, ammo sharaflari yuksak. Ana shu sabot va matonat ularni nafaqat yurtimiz, balki xalqaro ilmiy jamoatchilikka ham tanitdi. Ilmga sadoqat esa uning hayotida ma'naviy kamolot va moddiy farovonlikni uyg'un etdi.



Do'stmamat aka odob-axloqi, bilimi va donishmandligi, so'zi bilan amali uyg'un, barchaga ibrat bo'ladigan shaxsdir. U moddiy boylikdan ko'ra, ma'naviy kamolotni ustun qo'yadi, ruhiy dunyosi boy, qalbi toza va pok inson sifatida xalq orasida yuksak hurmat va e'tibor qozongan. **Uning har bir so'zi – o'git, har bir nasihati – hayot sabog'i. Shaxsiy manfaatlardan ko'ra, Vatan va jamiyat manfaatini ustuvor bilgan samimiy insonni, shubhasiz "hazrati inson" deb atashga to'la asos bor.**

Inson umrida turli bosqichlar bo'ladi, ammo 70 yosh bu hayot yo'lining sarhisobi, sabot va matonatning, yetuklik va kamolotning ramzidir. Shu sharaflari dovonga yetgan Do'stmamat aka o'z bilimi, boy tajribasi va oliyjanob fazilatlarini bilan ko'plab kishilarga ilhom bag'ishlab kelmoqda.

Akademikning yuksak insoniy fazilatlarini zahirida uni kamolga yetkazgan muborak zotlar – padari buzrukvori Abdusattor bobo Qulmamatov, mehribon onasi Musharraf onaning duo va tarbiyasi mujassam. Abdusattor bobo sakkiz farzandni halol mehnat va pok niyat bilan tarbiyalagan, doimo **"O'g'lim, ilimli, elga naf keltiradigan**

inson bo'lgini!" deya duo qilgan zahmatkash ota edi. Otaning ixlosli duosi ijobat bo'lishi haqidagi hikmat bugun o'z tasdig'ini topgandek. Buxoro madrasasida tahsil olgan qori Salom bobo Bobomurodovning qizi Musharraf ona farzandining hayot maktabidagi ilk va muqaddas ustoz. Uzoq yillar ta'lim sohasida samarali mehnat qilgan, jamoat ishida faol bo'lgan ona jigarbandi qalbga odob-axloq, mehr-oqibat va insoniylik urug'larini qadadi. Ona duosi

va tarbiyasi Do'stmamat akaning el orasida aziz bo'lishiga mustahkam poydevor bo'ldi. Do'stmamat akaning ishonchli suvanchig'i, oilaviy saodat me'mori Marziya opa Choriyevadir. Marziyaxon opa 30 yil Termiz tumanidagi 14-maktabda direktor o'rinbosari bo'lib ishlagan, xalqaro grant sohibi sifatida AQShda malaka oshirgan, "O'zbekiston Respublikasi yil o'qituvchisi" tanlovi g'olibi, "O'zbekiston Respublikasi xalq ta'limi a'lochisi", "O'zbekistonda xizmat ko'rsatgan yoshlar murabbiysi" faxriy unvonlariga ega. "Shuhrat" medali sohibasidir. Marziya opa umr yo'ldoshining erishgan har bir yutug'i va muvaffaqiyati uchun ko'rinmas qanot bo'lib, unga mislsiz kuch-quvvat va qat'iyat bag'ishladi. U nafaqat tayanch, balki erining qalbidagi orzular va ezgu maqsadlarning eng sadoqatli himoyachisiga aylandi; uning yo'lga g'ov emas, balki munavvar ziyo bo'lib, ezgu niyatlarining ijobat bo'lishi uchun dono maslahatlari bilan yo'l ko'rsatdi. Ayolning qalb harorati va dono tafakkuri erini faqat yaxshilikka undadi, uning ichki salohiyatini yuzaga chiqarishda beqiyos ko'makchi bo'ldi.

Do'stmamat akaning hayot bekatida erishgan ulkan zafarlari hamda yuksak marralarida maktab dargohi, oliy tahsil yillari va mehnat faoliyati davomidagi ustozlarining o'rni benihoya qadrlidir. Ushbu zahmatkash murabbiylar faqatgina ilm ziyosini tarqatuvchi emas, balki Do'stmamat akaning taqdir yo'llarini yorituvchi mash'al, shaxsiyatini kamolga yetkazuvchi me'mor va uni porloq istiqbolga undovchi yo'lchi yulduz bo'lib xizmat qildi. **Ular o'z shogirdi qalbga nafaqat fan asoslarini, balki yuksak ma'naviy fazilatlar, insoniylik tamoyillari va hayot falsafasining eng go'zal qirralarini singirdi.**

Ish jarayonidagi ustozlar hayotning murakkab yo'llarida o'z shogirdi Do'stmamat Sattorovichga mayoq vazifasini bajardi. Ular o'z tajribasi bilan shogirdining xato qilishiga yo'l qo'ymadilar, uni qiyin vaziyatlardan to'g'ri chiqib ketishga o'rgatdi. Ustoz-shogird munosabatlari o'zaro hurmat, ishonch va muhabbatga asoslandi.

Bugungi kunda Do'stmamat akaning o'zi katta ustoz. O'z davrining yetuk olimi taniqli professor Do'stmamat domlaning shogirdlariga aytadigan shiori: "Ilm-fan – kuch, iroda – kalit: maqsad sari to'xtamay, harakat qil!"


Ustoz Do'stmamat akani salobatli, viqorli tog'ga mengzagim keladi. Tog' asrlar davomida bo'ron va izg'irinlarga qanday dosh bersa, ma'nan kuchli Do'stmamat Qulmamatov ham hayot sinovlari qarshisida shunday matonat bilan tura oldi. Uni hech qanday qiyinchilik o'z yo'lidan qaytara olmadi. Tog'ning bag'rida qimmatbaho ma'danlar yashiringanidek, Do'stmamat akaning ulkan qalb dunyosida bilim va mehr xazinasini o'z o'rnini topdi. **Tog' cho'qqisi doimo osmonga talpingani kabi Do'stmamat Qulmamatov komil inson sifatida umr bo'yi ilmga, ma'naviy yuksaklikka, kamolotga, ya'ni sharaflari yo'lga intildi.** Do'stmamat aka o'z taqdirining tog'idir. Uning salobati bosiqligida, kuchi esa sabrida namoyon bo'ladi. Tog' yerning ustuni bo'lsa, ma'nan kuchli inson akademik olimlar jamiyatining tayanchlaridan biridir.

Do'stmamat Qulmamatovning 70 yillik hayoti va faoliyatiga to'liq nazar solsangiz, uning jahon adabiyotining daholaridan biri XIII asrda yashab, ijod qilgan Jaloliddin Rumiyning **"Sevgida quyosh kabi bo'l. Do'stlik va qardoshlikda oqar suv kabi bo'l. Birovlarining xatolarini yopishda kecha kabi bo'l. Tavoze da tuproq kabi bo'l. G'azab onida o'lik kabi bo'l. Har ne bo'lsang bo'l – yo asling kabi ko'rin, yo ko'ringaning kabi bo'l"**, degan hikmatlariga to'liq amal qilganini payqash mumkin.

Bunday xislatlarga ega bo'lgan, har tomonlama komil inson Do'stmamat Qulmamatov, shubhasiz, ulug'lar kabi abadiyatga daxldordir.

Poyon BAKIROV,
filologiya fanlari doktori,
professor, Turon FA akademigi

Milliy o'zlik



Ajdodlardan qolgan bebaho meros xalqimizning asrlar davomida shakllangan tarixi, madaniyati va urf-odatlarini o'zida mujassam etgan muhim ma'naviy boylikdir. Turli davrlardagi mafkuraviy bosimlarga qaramasdan, ushbu meros avloddan avlodga yetib kelib, milliy o'zlikni anglashda hamda mustaqillik davrida ma'naviy hayotni tiklash va rivojlantirishda mustahkam asos bo'lib xizmat qilib kelmoqda.

AJDODLAR MEROSI — ma'naviyat qudrati manbai

Shu bois yurtimiz bo'ylab fevral oyining dastlabki kunlaridanoq buyuk mutafakkir, shoir va davlat arbobi, o'zbek mumtoz adabiyotining asoschisi Alisher Navoiy hamda buyuk sarkarda va shoir Zahiriddin Muhammad Bobur tavalludi kuni keng nishonlanadi.

Navoiy o'z asarlarida insonparvarlik, adolat, ezgulik va ma'naviy kamolot g'oyalari ulug'lagan, shuningdek uning ijodi xalqimiz ma'naviy merosining bebaho xazinasi bo'lsa, Bobur o'zining "Boburnoma" asari orqali nafaqat o'z davrining siyosiy voqealarini, balki tabiat, madaniyat, inson ruhiyatini ham yuksak badiiy va tarixiy mahorat bilan tasvirlagan.

Bundan tashqari, O'zbekiston Respublikasi Prezidenti ajdodlar merosini "Xalqimizning bebaho ma'naviy xazinasi" deb atab, uni o'rganish ma'naviyat qudratining asosiy manbai ekanini ta'kidlaydi. Darhaqiqat, ulug' ulamolar merosi, milliy urf-odatlar va qadamjolarini asrab-avaylash orqali yoshlarni vatanparvarlik ruhida tarbiyalash hamda jaholatga

qarshi ma'rifat bilan kurashish Yangi O'zbekistonning ustuvor vazifalaridan biri. Ushbu ma'naviy xazinani ifodalashda davlat rahbari o'zining asosiy qarashlari sifatida quyidagilarni ifodalagan edi.

Ma'naviy asos: iymon-e'tiqod, mehr-oqibat va muruvvat kabi fazilatlar xalq ma'naviy hayotini yuksaltirishning mustahkam asosidir.

Tarixiy obidalarini asrash: aziz-avliyo va allomalarning merosini o'rganish, qadamjolarini obod etish va tarixiy obidalarini asrab-avaylashga katta e'tibor berilayotgani.

Ilmiy va diniy meros: Imom Buxoriy, Termiziy, Yassaviy kabi buyuk ajdodlarning ilmiy merosiga tayanish orqali diniy ta'limni rivojlantirish va ma'rifatli jamiyat qurish lozimligi aytilgan.

Targ'ibot vazifasi: ziyolilar, nuroniylar va hajja borib kelgan yurtdoshlar ajdodlar merosi targ'ibotchisi bo'lib, odamlarni yaxshilikka boshlashi kerak, tarixdan saboq olish, ajdodlar merosini chuqur

o'rganish yoshlar ma'naviyatini yuksaltirishda qudratli kuchdir.

Yuqoridagi shior va ajdodlar merosini asrab-avaylash hamda ularning hayoti va ijodini o'rganish bo'yicha "Zahiriddin Muhammad Bobur izidan" ko'rik-tanlovining harbiy xizmatchilar va yoshlar o'rtasida tashkil etilishi buyuk ajdodimiz merosini yodga olish, vatanparvarlik tuyg'ularini yuksaltirish va tarixiy xotirani mustahkamlashga qaratilgan madaniy-ma'rifiy tadbirdir. Mudofaa vazirligi tashabbusi bilan tashkil etiladigan ushbu tanlovda Bobur hayoti, ijodi va sarkardalik mahorati chuqur tahlil qilinib, ishtirokchilarning bilimi sinovdan o'tkaziladi. Tanlovning asosiy maqsadi, harbiy xizmatchilar qalbida vatanparvarlik, milliy o'zlikni anglash va tarixga daxldorlik tuyg'ularini shakllantirishdan iborat.

Xulosa qilib aytishimiz mumkinki, ajdodlarimizdan meros bo'lib qolgan boy ma'naviy-madaniy qadriyatlar xalqimizning milliy o'zligini anglashda, tarixiy xotirasini

asrash hamda jamiyat taraqqiyotini ta'minlashda beqiyos ahamiyat kasb etadi. Binobarin, ajdodlar merosiga tayangan holda jamiyatning barqaror ma'naviy taraqqiyotini ta'minlash mumkin. Navoiy va Bobur kabi buyuk allomalimizning ilmiy, adabiy va ma'rifiy merosi nafaqat o'z davri, balki bugungi kun uchun ham muhim ma'naviy manba bo'lib xizmat qilmoqda. Ularning asarlarida ilgari surilgan insonparvarlik, adolat, vatanparvarlik va komil inson g'oyalari yosh avlodni tarbiyalashda muhim ahamiyatga ega.

Zero ajdodlar merosini asrash – o'tmishga hurmat, bugunga mas'uliyat va kelajakka ishonch, demak. Shu bois bizga berilgan va bizgacha yetib kelgan ushbu ne'matlarga hurmat bilan munosabatda bo'lish va uni kelajak avlodlarga yetkazish har birimizning muqaddas burchimizdir.

Fazilat ABDULLAYEVA,
Urganch davlat universiteti
1-bosqich magistranti

Mulohaza

Avtobusga chiqasizmi, taomlanish uchun tamaddixonaga kirasizmi, ko'cha-ko'yda sayr qilib yurasizmi, oltmishdan oshib yetmishga yetayotgan amaki-xolalarning arz-dodiga, yoshlardan o'pkalanayotganiga beixtiyor guvoh bo'lasiz. Ular yigit-qizlarning axloqi buzilib ketayotgani, kattalarni hurmat qilmay qo'yganidan nolishadi.

Xo'sh, bildirilgan fikrlarda jon bormi? E'tiroz o'rinlimi? Chindan ham yoshlarning ma'naviyatida, siyratida kemtiklik, bo'shliq paydo bo'ldimi?

TAN OLISH KERAK...

Guruch kurmaksiz bo'lmaydi, deganlaridek ko'z yumib bo'lmaydigan holatlar ham bor. Jamoat transportida yoshlarning nogiron va yoshi katta yo'lovchilarga joy bermasligiga ko'p bora guvoh bo'lamiz. Ayniqsa, ijtimoiy tarmoqlarda yoshni ham, ijtimoiy mavqeni ham bir chetga surib, andishaning otini qo'rqqoq qo'yib, "ochiqchasiga" gaplashib olishni istovchi, o'zini "vorzakon" deb atovchi

YOSHLARNING TARBIYASI BUZILIB KETYAPTI(MI?!) (*o'chiq sharh*)



Surat sun'iy intellekt yordamida tayyorlandi

yoshlar ko'p. Real auditoriyasini shakllantirishga tirishib, nutqida vulgarizmlardan, bo'lar-bo'lmas so'zlardan foydalanayotganlar ham yo'q emas.

STEREOTIPLAR

Ko'pincha yoshi ulug' insonlar shosha-pisha, bilib-bilmay, ikki yoki uch o'spirinning xurmacha qilg'iga shohid bo'lgach, butun boshli avlod ustidan "hukm" chiqarib qo'yadi: "Yoshlar buzilib ketyapti. Aqli noqis bolalar dunyoga kelyapti". Avvalo,

yoshlar ijtimoiy qatlam ekanini, ikki yoki uch kishidan iborat bo'lib qolmasligini anglamoq kerak. Ular orasida ham iqtidorlisi, ham loqaydi, ham tashabbuskori, ham mas'uliyatsizi bor. Ayrimlarning bosgan noto'g'ri qadami sabab "ho'l-u quruq o'tda baravar yonishi" adolatsizlikdan bo'lak narsa emas!

KECHAGI VA BUGUNGI "HURMAT"

Ta'kidlash joiz, hurmat tushunchasining mohiyati globallashuv davriga kelganda

evrilishlarga uchradi. Avvallari insonlar hurmat deganda sukut saqlash, gap qaytarmaslik, hech qanday e'tirozsiz, lom-mim demay, bo'ysunishni, ko'nishni, bo'yin egishni tushungan. O'sib-ulg'ayayotgan avlod esa hurmatni ikki tomonlama muloqot, fikr almashish va shaxsiy pozitsiyasini namoyon etish bilan egiz holda tasavvur qiladi, savol beradi. Kezi kelganda, vaziyat, holat, jarayon yuzasidan e'tiroz ham bildiradi.

Afsuski, kattalar tanqidni, e'tirozni hurmatizlik nishonasi, belgisi sifatida qabul qiladi. Holbuki, tanqid – tafakkur mevasi. Fikrlayotganlikdan darak, dalolat. Yoshlar, tabiiyki, global miqyosda fikrlaydi: Internet tarmog'ida muayyan mavzu doirasidagi turfa xil ma'lumotlarga duch keladi. Ularni o'zaro taqqoslaydi. Tegishli xulosalar chiqaradi. Umuman, har qanday fikrni, axborotni shartsiz qabul qilmaydi.

"Bizning davrda bari boshqacha edi" qabilidagi ta'na-dashnomlarga to'la gaplar faqat va faqat munosabatlarning chigallashishiga, yomonlashishiga xizmat qiladi. Tushunmovchiliklarni keltirib chiqaradi. "Zed avlod"da, tinglashni, tushunishni xohlamayapti", degan taassurot qoldiradi.

Muammoning tag zamirida, nazarimda, ikki avlod orasida kommunikatsiya yetishmasligi yotadi. Zero hurmat qo'rqish, ko'r-ko'rona amal qilishda emas, balki bir-birini tushunishda, to'ldirishda ko'zga tashlanadi.

Ulug'bek SHAROBIDDINOV,
O'ZJOKU talabasi

Qo'tir (rus tilida – “chesotka”, grekchada – “skabies”) – terida kuchli qichishish bilan kechadigan yuqumli parazit kasallik bo'lib, uni maxsus parazit, ya'ni qo'tir kanachasi keltirib chiqaradi.

TERI OSTIDAGI KO'RINMAS DUSHMAN

Qo'tir asosan maishiy muloqot orqali yuqadi. Qo'tir kanasi bemor bilan bevosita teri kontakti orqali hammomda, basseynda, mehmonxonada, yotoqxonada bir to'shakda yotish orqali, umumiy kiyim, sochiq, ko'rpa-to'shak orqali sog'lom teriga o'tib, teri ostiga kiradi. Ularning ko'pligi, o'lchami kichikligi va harakatchanligi tufayli terining har qanday qismidagi soch follikulalariga singib ketishi mumkin. Teri ostida kanalar “tunnellar” hosil qiladi va o'sha yerda ko'payadi. Bu esa allergik reaksiya va qichishishni keltirib chiqaradi.

Qo'tirning boshqa teri kasalliklaridan farqlovchi belgisi terida “juftlashgan

elementlar” yoki teri ostida qo'tir kanasining kirish va chiqishini ifodalovchi juft yallig'lanish yo'llarining mavjudligidir.

Urg'ochi kanalarining terini teshib kirish jarayoni 15 daqiqadan bir soatgacha davom etadi. Teri ichiga kirganidan so'ng juda faollik bilan terining muguz qavati hujayralarini kemirib, yeya boshlaydi. Qo'tir kanasi 5-8 hafta umr ko'radi. Teri osti yo'llarida kuniga 1-2 tadan tuxum qo'yadi va ular 3-5 kunda yetilib chiqadi. Qo'tir ko'pincha barmoqlar orasida, qo'l bilagida, qo'litiq ostida, qorin terisida, bel atrofida, jinsiy a'zolar atrofida uchraydi va terida ingichka kulrang yoki oqish chiziqlar

paydo bo'ladi, bu kananing teri ostida hosil qiladigan “tunnellar”idir.

Bemorning zararlangan terisi kuchli qichishadi (*ayniqsa, kechasi*), terida mayda qizil toshmalar, ingichka chiziqsimon yo'llar (*kana tunnellari*), qashlangan joyga qo'shimcha infeksiya tushishi natijasida yiringli yaralar, dermatitlar paydo bo'lishi mumkin.

Kasallik kelib chiqqanda tez fursatda bemorni alohidalash va statsionar sharoitda davolash lozim bo'ladi. Kasallikni tashxislashda bemorning so'zidan olingan ma'lumotlar asosida toshmalarini kattalashtirib ko'rsatuvchi dermoskop yordamida “delta qanot”

belgisini aniqlash qo'tir kanasi borligini ko'rsatadi. Zararlangan teridan olingan qirmani mikroskop ostida ko'rish bilan bemorga yakuniy tashxis qo'yiladi. Bemor bilan muloqotda bo'lganlar 5 kun mobaynida tana ko'rigidan o'tkaziladi va profilaktik davo choralari ko'riladi.

Kasallikni davolash uchun qo'tirga qarshi maxsus malhamlar 5 kun mobaynida butun tanaga surtiladi. Malhamni kechqurun surtish maqsadga muvofiq, chunki kanalar ayni o'sha vaqt faollashadi. Oilaning barcha a'zolari yoki xizmatdoshlari bir vaqtda davolanishi lozim. Samarasiz o'tkazilgan davo choralari oqibatida kasallik qaytalanishi mumkin.

Bunga davolashning to'liq kursini o'tamaslik, bemorning davolash kursini o'tagandan so'ng zararsizlantirilmagan yoki sifatli zararsizlantirilgan kiyim-choyshalardan foydalangani sabab bo'lishi mumkin. Bundan tashqari, oila a'zolari ichida yoki xizmatdoshlari orasida bemorlarning o'z vaqtida aniqlanmasligi qo'tirning qaytadan rivojlanishiga sabab bo'ladi.

Qo'tir bemor aniqlangan joyda uning hamda oila a'zolarining (*xizmatdoshlarining*) kiyim va ko'rpa-to'shaklari kamerali zararsizlantirishdan o'tkaziladi yoki qaynatiladi va dazmollanadi.

Kasallikning oldini olish uchun birinchi o'rinda shaxsiy gigiyena qoidalariga rioya qilish lozim. Begona kiyim va sochiqlarni ishlatmaslik, bemor bilan yaqin muloqotdan saqlanish, ko'rpa-to'shaklaridan umumiy foydalanmaslik lozim.

Tibbiy xizmat podpolkovnigi M. SHAROPOV, Qarshi sanitariya-epidemiologiya nazorati bo'limi boshlig'i



Kelajak bunyodkorlari



Yangi O'zbekistonning VATANPARVAR YOSHLARI

Sirdaryo viloyatining Mirzaobod tumanidagi 32-umumta'lim maktabida “Yangi O'zbekistonning vatanparvar yoshlari” shiori ostida ko'rik-tanlov tashkil etildi.

Viloyatning chekka hududlarida istiqomat qiluvchi yoshlarni harbiy-vatanparvarlik ruhida tarbiyalash, ularning huquqiy madaniyatini yuksaltirish hamda Vatanga sadoqat tuyg'ularini mustahkamlash maqsadida o'tkazilgan tadbir harbiy orkestr ijrosidagi kuy-qo'shiqlar, faxriy qorovul saf tortishi hamda harbiy xizmatchilarning ko'rgazmali chiqishlari bilan boshlandi.

Mazkur tadbir O'zbekiston yoshlar ittifoqining viloyat kengashi, Harbiy prokuratura, favqulodda vaziyatlar va bojxona boshqarmalari, Toshkent harbiy okrugi hamda Milliy gvardiya boshqarmasi bilan hamkorlikda o'tkazildi.

Tanlovda “Kamolot” va “Kelajak” jamoalari 5 shart bo'yicha bellashdi. Dastlabki shartda o'quvchilar o'zlarini tanishtirib, jamoa nomi, shiori va maqsadlarini bayon etdi. Har bir chiqish ijodiy yondashuv, sahna madaniyati va jamoaviy hamjihatligi bilan ajralib turdi.

Vatanparvarlikka oid she'r yodlash shartida ishtirokchilar ona Vatan, tinchlik va hurlikni madh etuvchi she'rlarni mahorat bilan ijro etdi. Navbatdagi shartda jamoalar turli mavzularda rasmlar chizdi. “Darts” sharti ishtirokchilarning diqqat-e'tibori va chaqqonligini sinovdan o'tkazdi.

Tanlovning eng hayajonli qismi sahna ko'rinishlari bo'ldi. Jamoalar tomonidan namoyish etilgan chiqishlarda Vatanga sadoqat, qonun ustuvorligi, tinchlikni asrash, yoshlarning harbiy kasbga qiziqishi kabi mavzular yoritildi.

Tadbir yakunida faol ishtirok etgan jamoalar va o'quvchilar tashkilotchilar tomonidan diplom va esdalik sovg'alar bilan taqdirlandi.

Toshkent harbiy okrugi matbuot xizmati

Qonuniylik va intizom

XIZMAT BARQARORLIGINING MUSTAHKAM POYDEVORI



Sharqiy harbiy okrug boshqaruv apparatida huquqbuzarliklarning oldini olish, harbiy intizomni mustahkamlash hamda shaxsiy tarkib o'rtasida qonuniylikni ta'minlash masalalariga bag'ishlangan tadbir bo'lib o'tdi.

Yig'ilishda okrug mas'ul ofitserlari, harbiy prokuratura vakillari, harbiy xizmatchilar va Qurolli Kuchlar ishchi-xizmatchilari ishtirok etdi. Kun tartibi doirasida harbiy jamoalarda sog'lom ma'naviy-ruhiy muhitni shakllantirish, shaxsiy tarkibning huquqiy savodxonligini oshirish, intizom buzilishlarining oldini olish, korrupsiya va boshqa salbiy holatlarni barvaqt bartaraf etish masalalari atroflicha muhokama qilindi.

Harbiy prokuratura mutasaddilari amaldagi qonunchilik talablari va javobgarlik choralari xususida batafsil tushuncha berdi. Huquqbuzarliklarning salbiy oqibatlari aniq misollar asosida tahlil qilinib, ularning harbiy jamoa obro'siga, xizmat samaradorligiga va harbiy xizmatchining shaxsiy mas'uliyatiga ta'siri alohida ta'kidlandi.

Videokonferensiya shaklida o'tkazilgan tadbirda okrug tasarrufidagi barcha harbiy qism va muassasalar bilan bir qatorda Andijon, Farg'ona hamda Namangan viloyatlari mudofaa ishlari boshqarmalari xodimlari ham ishtirok etdi. Bu muhokamalar qamrovini yanada kengaytirib, hududlar kesimidagi muammolar va ularning yechimlarini birgalikda ko'rib chiqish imkonini yaratdi.

Yig'ilish yakunida mas'ullarga huquqbuzarliklarning oldini olish

bo'yicha aniq va manzilli chora-tadbirlar rejasini ishlab chiqish, shaxsiy tarkib bilan muntazam profilaktik suhbatlar o'tkazish, xizmat intizomi ustidan nazoratni kuchaytirish yuzasidan topshiriqlar berildi. Shuningdek, har bir rahbarning shaxsiy namunasi, ochiqlik va halollik muhitini qaror toptirishda hal qiluvchi omil ekani qayd etildi.

Ta'kidlanganidek, bunday tadbirlar harbiy jamoalarda qonun ustuvorligini ta'minlash, xizmat burchini sidqidildan ado etish va yuksak intizom muhitini shakllantirishda muhim ahamiyat kasb etadi. Zero tartib va qonuniylik ustuvor bo'lgan jamoada har bir vazifa aniq, har bir buyruq mas'uliyat bilan bajariladi.

Sharqiy harbiy okrug matbuot xizmati

Yong'in xavfsizligi



LOQAYDLIK VA E'TIBORSIZLIK OQIBATI

Yong'inlarning sodir bo'lishi birinchi navbatda qurilma va uskunalaridan e'tiborsiz va nazoratsiz foydalanish, uning texnik jihatdan nosozligi, qolaversa isitish va yoritish manbalariga nisbatan sovuqqon munosabatda bo'lish oqibatida yuz beradi.

Ya'ni ob-havoning keskin sovib ketishi davomida harbiy qism, muassasa va tashkilotlar yoki yashash joylarida isitish moslama va uskunalariga ehtiyoj oshadi. Ushbu davrda ayniqsa elektr qurilmalaridan foydalanish jarayonidagi qoidabuzarlik, qo'lbola uskunalarini yoqqan holda ularni nazoratsiz qoldirish oqibatida yong'in kelib chiqadi hamda odamlar hayoti va sog'lig'iga, mol-mulkiga, shuningdek atrof-muhitga jiddiy zarar yetkaziladi.

Odamlar yong'in xavfsizligi qoidalarini bilmasligi yoki bilib turib, ularga amal qilmasligi, qolaversa O'zbekiston Respublikasining "Yong'in xavfsizligi to'g'risida"gi qonunida belgilab berilgan huquq va majburiyatlarni bilmaslik singari sovuqqon munosabatlar oqibatida turli darajadagi yong'inlar kelib chiqishiga sabab bo'lmoqda.

Sovuq kunlarida xizmat va yashash xonadonlarini isitish maqsadida ayrim harbiy hamda ishchi-xizmatchilar qo'lbola, nostandart elektr qurilmalari

yoki uskunalaridan foydalanadi. Ayniqsa, qisqa vaqt ichida tegishli xonani isitish, arzon va tez topiladigan jihatlarini birinchi navbatda inobatga olib, qo'lbola elektr spiral uskunasi (*pechka*) dan foydalanishga yo'l qo'yadilar, biroq ikkinchi tomoni, ya'ni uning davlat standartiga javob bermasligi, maxsus texnik hujjati yo'qligi, ustki qismida maxsus himoya qoplamasi mavjud emasligi, ko'p miqdorda elektr tokini sarflashi, tag qismi hamda elektr uzatish simlarining uskuna bilan ulash joylari ochiqligi aksariyat hollarda e'tiborsiz qoladi.

Yashash uylari va xizmat joylarida yong'inlar kelib chiqishining oldini olish maqsadida belgilangan qoidalarga to'liq rioya qilish, bu borada shaxsiy javobgarlik hamda ehtiyotkorlikni oshirish talab etiladi.

Mayor Shuhrat ARAKULOV,
Toshkent garnizoni yong'in nazorati inspeksiyasi boshlig'i

Salomatlik

Bugun ko'chada, do'konda, hatto xizmat joylarida ham rang-barang qadoqlardagi ichimliklar keng tarqalgan. "Gorilla", "Red Bull", "Coca-Cola" va boshqa shunga o'xshash gazli ichimliklar go'yoki energiya va zamonaviylik ramzi sifatida targ'ib qilinadi. Ammo haqiqat tamomila boshqacha.



GAZSIZ HAYOT

Harbiy xizmatchi uchun har bir odat – bu intizom masalasi! Har bir tanlov sog'lom hayot tarzining mas'uliyati hisoblanmog'i dardkor.

Bir vaqtlar men ham energetik ichimliklarni tez-tez iste'mol qilardim. Bir kunda 4-5 tagacha ichgan paytlarim ham bo'lgan. Natijasi esa juda yomon: tunlari uyqusizlik, yurak urishining tezlashuvi, asabiylik, bir so'z bilan aytсам, behalovatlikni his etardim. Xavotirlisi shuki, tanamda ikki dona chandiqlimon yara paydo bo'lmaguncha bu yomon odat muntazam davom etdi. Bu oddiy tasodif emas, organizmning ogohlantiruvchi xabari ekan keyin bilsam.

O'sha paytlarda internetda energetik ichimliklarni haddan tashqari ko'p iste'mol qilgan yigitning shifokor qabulidagi videosini ko'rib qoldim. Uning tanasi chandiqlarga to'lib ketgandi. Doktorning tavsiyalarini eshitdim va menda ham ushbu holat takrorlanmasligi uchun energetik ichimliklardan tezda voz kechish fursati kelmadimikan, deb o'ylab qoldim. Bu lavha meni jiddiy o'ylantirib qo'ydi.

O'qish davrida kursdoshim Azizbek bilan birga tushlik qilar edik. E'tibor bersam, u hech shirin va gazli ichimlik ichmas ekan. Doim oddiy suv yoki tabiiy ichimlik iste'molini tanlardim. Noto'g'ri tanlovda ekanimni sezdim. Uning maslahati ko'cha iborasida bo'ldi: "7 yildan beri shunaqa ichimliklar ichib, shoxim chiqmadi, xuddi giyohvandday bo'lib qolgandim. Bir kun o'zingma "Stop!" dedim".

Tabiiyki, men ham o'zim uchun qaror qildim. Bo'ldi, bas, yetar! Odatni tark etish oson bo'lmagani rost. Ammo intizom bilan harakat qildim. Hozirda gazli va energetik ichimliklardan butunlay voz kechganimga bir yil bo'ladi. Sokin uyqu tiklandi, ahvolim ancha yaxshilandi hamda 5-7 kg ortiqcha vazn tashladim. Eng muhimi, tanamdagi chandiqlar ko'paymadi. Gazli ichimliklar o'rimga o'rik sharbati, na'matak damlamasi va eng asosiysi, toza ichimlik suvi iste'mol qilyapman. Suv ichish ham bir san'at ekan: to'g'ri ichish, kerakli vaqtda va miqdorda. O'rgandim. Vaqt o'tib haqiqiy quvvat energetik ichimliklarda emasligini tushundim. Kursdoshim to'g'ri tanlovda ekani o'z isbotini topdi. Harbiy xizmatchi uchun saboq bo'lsin, deya shuni aytib o'tishim kerakki, Vatan posboni o'z tanasiga befarq bo'lishi mumkin emas. Sun'iy qo'zg'atuvchilar vaqtinchalik tetiklik beradi, ammo organizmni ichdan yemirar ekan.

Bugun tanlov o'z qo'limizda: birzumlik lazzatga qaramlikmi yoki uzoq muddatli sog'liqmi? Nazarimda, vaqtda to'g'ri tanlov qila oldim. Va shuni qat'iy ayta olamanki, gazsiz energetik ichimliklarsiz ham yashasa bo'larkan! Eng muhimi, ularsiz yashash ongli va kuchli insonni shakllantirar ekan! Qisqasi, men voz kecha oldim, siz ham albatta uddalaysiz! Buning uchun ularning naqadar zararli ekanini anglasangiz bas.

Farrux URUNOV, O'zJOKU talabasi

XALQARO MAYDONDAGI SHARAFLI ZAFAR

Yaqinda Qozon shahridagi Suvorov harbiy bilim yurtida MDH davlatlari o'rtasida xalqaro ingliz tili bo'yicha fan olimpiadasi bo'lib o'tdi. Nufuzli intellektual bellashuvda Farg'ona "Temurbeklar maktabi" harbiy akademik litseyi o'quvchilari ham munosib ishtirok etib, yuksak natijalarga erishdi.

Mazkur olimpiada ishtirokchilardan nafaqat chuqur nazariy bilim, balki mustaqil va erkin fikrlash, muloqot madaniyati hamda jamoada ishlash ko'nikmalarini ham talab qildi. Turli davlatlardan tashrif buyurgan iqtidorli yoshlar o'rtasida kechgan bahs-munozaralar, murakkab test sinovlari va ijodiy topshiriqlar bellashuvga alohida shiddat bag'ishladi.

Kuchli raqobat ruhida kechgan bellashuvda Farg'ona "Temurbeklar maktabi" harbiy akademik litseyi o'quvchilari umumjamoa hisobida 2-o'rinni qo'lga kiritib, xalqaro miqyosda yuksak natijani qayd etdi. Shuningdek, litsey



o'quvchisi Abdurauf Abdubannopov "Eng yaxshi jamoa kapitani" nominatsiyasida faxrli 3-o'rinni egalladi. Uning qat'iyati va yetakchilik mahorati bahslarni kuzatib borgan hakamlarda katta taassurot qoldirdi.

Bu muvaffaqiyat ortida o'quvchilarning puxta tayyorgarligi, mustahkam

intizomi va izchil mehnati, shuningdek ustozlarning fidokorona sa'y-harakatlari mujassam. Yosh Temurbeklar mazkur musobaqa orqali bilim va intilish yo'lida o'z oldilariga qo'ygan yuksak maqsadlarga sodiq ekanini yana bir bor namoyon etdi.

G'oliblarni tantanali kutib olish marosimi Marg'ilon shahri temiryo'l vokzalida

ko'tarinki ruhda tashkil etildi. Tadbirda litsey rahbariyati, mas'ul ofitserlar, o'qituvchilar hamda o'quvchilarning ota-onalari ishtirok etdi. Harbiy orkestr ijrosida yangragan kuy-qo'shiqlar va ezgu tilaklar g'oliblarga bo'lgan yuksak ehtiromni ifodaladi.

Quvonch va iftixorga to'la ushbu lahzalar yosh

Temurbeklarni yangi marralar sari ilhomlantirdi. Xalqaro maydonda qo'lga kiritilgan ushbu yutuq kelgusida yanada ulkan zafarlar uchun mustahkam zamin bo'lishi shubhasiz.

Gulihumo MAJIDOVA,
Sharqiy harbiy okrug
matbuot xizmati bosh
mutaxassisi

Hayot saboqlari

Singlim bilan muzqaymoq yegani otlandik. Dam olish kuni o'zimiz uchun vaqt ajratganimizdan mamnunmiz. Negaki, ishchi ayollar borki, dam olish kunini oilasiga bag'ishlaydi. Ro'zg'or yumushlari, bozor-o'char degandek, xonadon muammosi bilan band bo'ladi. Xullas, ishlarimizni tinchitib, muzqaymoq bahonasida dam olishga imkon topganimiz yaxshi bo'ldi. Opa-singil birga o'tirib suhbatlashamiz, dardlashamiz, sirlashamiz.

Katta shahar, yo'llar odamlar bilan gavjum, hamma hayot ummonida qayoqqadir shoshadi. Odamlar oqimi orasida qip-qizil atirgullardan katta guldasta ko'tarib olgan yigit e'tiborimizni tortdi. U yonginamizdan mamnun qiyofada o'tar ekan, beixtiyor quchog'ini to'ldirib turgan gullarga nigohimiz tushdi. Qizil atirgullarning o'rtasiga oq atirgullardan mo'tabar so'z muhrlangandi: ONAJONIMGA!

Bir-birimizga gap bermay kelayotgan opa-singillar jim qoldik. Ayni pallada ikkimizning ham ko'nglimizdan bir o'y, bir xil kechinma



o'tmoqda edi. To'g'rirog'i, bir armon bosh ko'tarib, ko'zlarimizdan yosh bo'lib quyilishga shay turardi. Bir savol yuragimizga o'qdek qadalmog'da edi: "Onajonimizga biror marotaba gul sovg'a qilganimizmi?"

Onamiz gulni juda sevardi. Hovlimizni to'ldirib turgan gul-u rayhonlar ularning qo'li bilan bunyod bo'lardi. Saksondan oshganlariga qaramay gullar parvarishida tinib-tinchimas, yoz bo'yi chakkalarini rayhon bezab turardi. Agar ularga quchoqlarini to'ldirib gullar sovg'a qilganimizda bormi...

Onamizning tug'ilgan kuni hujjatlarda qayd etilmagan. Shu sabab tug'ilgan kunlarini o'tkazmaganmiz. Ammo doimo har bir bayram va quvonchli kunlarda volidamizni sovg'a-salomlar bilan siylab turardik. Ular qaysi taomni yoqtiradi, qaysi rangni xush ko'radi, qaysi bir so'zimizdan dillari yayraydi... barchasiga e'tibor qaratishga harakat qildik. Lekin ular sevgan gullardan taqdim etish...

Afsuski, endi bu armon yukidan qutulishga imkon yo'q, chunki bag'rimizda Onajonimiz yo'q. Aziz farzandlar, biz kechikdik, siz shoshiling. 8-mart – ayollar uchun aziz ayyom. Onangizning qo'lingizdan gul olayotgandagi shodlikka yo'g'rilgan nurli chehrasi qalbingizni munavvar etsin.

Zulfiya YUNUSOVA,
"Vatanparvar"

O'zbekiston kubogi

YOSH MOHIR MERGANLAR SARALANDI



Buxoro shahrida "Vatanparvar" tashkiloti tomonidan yoshlar o'rtasida sportning pnevmatik quroldan o'q otish turi bo'yicha O'zbekiston kubogining 1-bosqich musobaqasi o'tkazildi.

Mazkur bellashuvda respublikamizning turli hududlaridan tashrif buyurgan 80 ga yaqin sportchi 10 metrlik masofadan pnevmatik miltiq va pistoletlardan nishonni mo'ljalga oldi.

Qizg'in va murosasiz kechgan musobaqa quyidagi natijalar bilan yakunlandi.

Miltiqdan o'q otish bo'yicha "VP-6" sinfida, o'g'il bolalar o'rtasida:

1-o'rin: Jamol Saidaliyev (Toshkent v.);

2-o'rin: E'zozbek Rahimjonov

(Namangan v.);

3-o'rin: Ilnur Xolmirzayev (Namangan v.);

qizlar o'rtasida:

1-o'rin: Laylo Haydarova (Xorazm v.);

2-o'rin: Sabina Tolibjonova (Farg'ona v.);

3-o'rin: Charos Hamrayeva (Navoiy v.).

Pistoletdan o'q otish bo'yicha "PP-6" sinfida, o'g'il bolalar o'rtasida:

1-o'rin: Rafet Kerimov (Namangan v.);

2-o'rin: Salohiddin G'ofurov (Toshkent v.);

3-o'rin: Behro'z Hojiyev (Namangan v.);

qizlar o'rtasida:

1-o'rin: Dilnavoz Masharipova (Xorazm v.);

2-o'rin: Irina Tarasova (Namangan v.);

3-o'rin: Diana Abdumom'ino'va (Toshkent v.);

jamo'ia hisobida:

1-o'rin: Toshkent viloyati;

2-o'rin: Namangan viloyati;

3-o'rin: Farg'ona viloyati jamoalari.

G'oliblar va yuqori o'rinlarni qo'lga kiritgan sportchilar "Vatanparvar" tashkilotining diplom hamda qimmatbaho sovg'alari bilan taqdirlandi.

Ochiq chempionat



ENG YAXSHI MOTOKROSS SPORTCHILARI ANIQLANDI

Surxondaryo viloyatining Jarqo'rg'on tumanidagi "Qizilmazor" mototrassasida "Vatanparvar" tashkiloti tomonidan sportning motocross turi bo'yicha O'zbekiston ochiq chempionati va birinchiligining 1-bosqich musobaqasi o'tkazildi.

Respublikamizning turli hududlaridan ishtirok etgan 100 dan ziyod sportchi turli hajmdagi dvigatellarga ega mototsikllarda belgilangan masofalarni bosib o'tib, marra sari harakatlandi.

Qizg'in va murosasiz kechgan poyga bahslarida umumjamo'ia hisobida 1-o'rin Navoiy viloyati jamoasiga nasib etdi. Ikkinchi va uchinchi o'rinlarni Sirdaryo hamda Buxoro viloyatlari jamoalari qo'lga kiritdi.

O'zbekiston ochiq chempionati musobaqalarida esa umumjamo'ia hisobida 1-o'ringa Toshkent viloyati jamoasi sazovor bo'ldi. Ikkinchi va uchinchi o'rinlarga Toshkent shahri hamda Buxoro viloyati jamoalari loyiq topildi.

G'oliblikni qo'lga kiritgan sportchilar "Vatanparvar" tashkilotining diplom, kubok va esdalik sovg'alari bilan taqdirlandi.

O'zbekiston Respublikasi mudofaasiga ko'maklashuvchi "Vatanparvar" tashkiloti matbuot xizmati

Huquqiy profilaktika

XIZMAT FAOLIYATIDA USTUVOR TAMOYIL

Qashqadaryo viloyati favqulodda vaziyatlar boshqarmasi harbiy xizmatchilari hamda xodimlari ishtirokida "Islahotlar yo'lidagi eng katta to'siq – korrupsiya" mavzusida muloqot tashkil etildi.

Unda xizmat faoliyatini halollik mezonlari asosida olib borish, mansab vakolatlarini suiiste'mol qilishning oldini olish, har qanday noqonuniy manfaatdorlikka qat'iy chek qo'yish masalalari atroflicha muhokama qilindi.

Korrupsiyaga oid huquqbuzarliklar uchun belgilangan javobgarlik, jinoyatlarning huquqiy oqibatlarini hamda profilaktika choralari to'xtalib o'tildi. Jarayonda korrupsiyaning jamiyat taraqqiyotiga, davlat boshqaruvi samaradorligiga hamda aholi ishonchiga salbiy ta'siri keng tahlil qilindi.

Korrupsiyaga qarshi kurashish har bir xodimning shaxsiy burchi, halollik va shaffoflik esa xizmat sha'ni va qadr-qimmatining ajralmas qismi ekani ta'kidlandi.

Adliya katta leytenanti
Shohjaxon TAMIRBAYEV,
Qarshi harbiy prokurorining
yordamchisi

Ogohlik

HUSHYORLIKKA CHORLAGAN MULOQOT

O'zbekiston Respublikasi Harbiy prokuraturasi tomonidan O'zbekiston Yoshlar ittifoqi Toshkent shahri kengashi, Bektemir tumani hokimligi va "Profi universiteti" bilan hamkorlikda yoshlar ishtirokida "Kiberxavfsizlik – xavfsizlik kafolati" mavzusida ochiq muloqot o'tkazildi.

Unda kiberjinoyatlarning kelib chiqish sabablari, ularning turlari, sodir etilish usullari va bunday huquqbuzarliklarning salbiy oqibatlarini haqida batafsil ma'lumotlar berildi.

Shuningdek, internet tarmog'ida shaxsiy ma'lumotlarni himoya qilish, turli kibertahdidlardan ogoh bo'lish va ularning oldini olish bo'yicha amaliy tavsiyalar berib o'tildi.

Muloqot "Birgina tanlov – porloq kelajak yoxud ayanchli taqdir" mavzusida davom etdi. Unda giyohvandlikning inson salomatligi, oilaviy muhit va jamiyat kelajagiga yetkazadigan salbiy ta'siri hamda ayanchli oqibatlarini xususida so'z bordi.

Mavzuga doir namoyish etilgan videofilm barchani yanada hushyorlikka chorladi.

Adliya kapitani
Azamat GULAMOV,
Respublika Harbiy prokuraturasi
bo'lim harbiy prokurori

Inson qadri uchun

QAROR IJROSI AMALDA

O'zbekiston Respublikasi Harbiy prokuraturasi tomonidan Toshkent shahrining Bektemir tumanidagi "Husayn Boyqaro" MFYda aholi, jumladan nuroniylar, yoshlar va xotin-qizlar ishtirokida ommaviy qabul tashkil etildi. Unda tuman mas'ullari tomonidan fuqarolarning murojaatlari tinglanib, ko'tarilgan masalalarni hal etish yuzasidan amaliy choralar belgilandi.

Shu kabi reja-jadval asosida mas'ullar tomonidan tuman maktabgacha va maktab ta'limi bo'limi bilan hamkorlikda Chashma mahalla fuqarolari ishtirokida shaxsiy qabullar o'tkazildi.

Shuningdek, tadbirlar davom ettirilib, bir necha kun avval "Rohat" MFYda o'tkazilgan qabul jarayonida aholi tomonidan ko'tarilgan masalalarning yechimi doirasida amaliy ishlar olib borilib, hududda yo'l harakati xavfsizligini yanada mustahkamlash choralari ko'rildi va tegishli ko'chalarda sun'iy to'siqlar o'rnatilishi ta'minlandi.

Bundan tashqari, Mudofaa vazirligi Markaziy harbiy klinik hospitali bilan hamkorlikda "Nurafshon" MFYda aholi, jumladan nuroniylar, xotin-qizlar, yoshlar va bolalar uchun bepul chuqurlashtirilgan tibbiy ko'rik tashkil etildi. Jarayonda ko'rikda tashrif buyurgan fuqarolar malakali tibbiy mutaxassislar tomonidan maxsus tekshiruvlardan o'tkazildi.

Adliya podpolkovnigi
Feruz XAMZAYEV,
Respublika Harbiy prokuraturasi
bo'lim boshlig'i o'rinbosari

Ijtimoiy himoya

TADBIRLAR DAVOM ETMOQDA

O'zbekiston Respublikasi Harbiy prokuraturasi tomonidan Qurolli Kuchlar vazirlik va idoralari hamkorligida olis hududlarda xizmat qilayotgan harbiylarning oila a'zolari, harbiy ayollar va mahallalarda yashovchi xotin-qizlar uchun tashkil etib kelinayotgan bepul chuqurlashtirilgan tibbiy ko'riklar davom etmoqda.

"Harbiy prokuratura – armiya prokuraturasi" shiori ostidagi bu galgi tibbiy ko'rik Sirdaryo tumanida tashkil etildi. Dastlab ochiq muloqot o'tkazilib, mas'ullar tomonidan xotin-qizlarning huquqlari va qonuniy manfaatlariga oid qonunchilik mazmun-mohiyati atroflicha tushuntirildi.

Shundan so'ng opa-singillarimiz tor doiradagi tibbiyot mutaxassislari qabulida bo'lib, ayollar orasida ko'p uchraydigan onkologik kasalliklarning oldini olish uchun maxsus tibbiy tekshiruvlardan o'tkazildi.

Shu bilan birga, kuch tuzilmalari va mutasaddi tashkilotlar bilan hamkorlikda "Yangi O'zbekistonning vatanparvar yoshlari" shiori ostida Sirdaryo viloyatining olis hududida ko'rik-tanlov tashkil etildi.

Mirzaobod tumanidagi 32-sonli umumta'lim maktabida o'tgan tanlovda o'quvchi-yoshlar Vatanga muhabbat va sadoqatini buyuk ajdodlarimizga bag'ishlangan sahna ko'rinishlari hamda tezkor savol-javoblardagi bilimlari orqali namoyon etib, barchada katta taassurot qoldirdi.

G'olib jamoalar, faol o'quvchilar faxriy yorliq va esdalik sovg'alari bilan taqdirlandi.

Adliya podpolkovnigi
Gulchehra TURSUNOVA,
O'zbekiston Respublikasi Harbiy
prokurorining katta yordamchisi

Nazm



Muhammadali G'AFFOROV,
O'zbekiston Yozuvchilar
uyushmasi a'zosi

Vatan, mening onamdan
ko'proq mening onamsan.

Mansur JUMAYEV

Vatan mening onamdir, boshimda ko'targayman

Belanchagim tebratgan
Shamol mening onamdir,
Tunlari alla aytgan
Hilol mening onamdir.
Daryo, irmoq, soygacha,
Tog'-u tosh, g'umaygacha,
Nomus tutgan har bitta
Ayol mening onamdir.
Vatan mening onamdir,
boshimda ko'targayman.

Aytmam o'tgan kunlarni,
Olis ketgan kunlarni,
Pesh qilib hakimlarni,
Yana allakimlarni,
Temur, Bobur, Jahongir,
Mangu ketgan unlarni,
Tinch qo'yib uchqunlarni
So'ylagum bu kunlarni.
Mayoq qilib o'tmishning
Etagidan tutmayman.

Har jonda bir vatan bor,
Har yurakda ozodlik.
Vatan degan odam bor,
Yovga qaddin tutar tik,
Er yigitlar omondir,
El boshida omonlik.
Ko'ngillarda barq urgay
Vatan, millat, xalq va erk.
Erk so'zini ko'ksimga
Tumor qilib qadayman.

To'rt tomonda talotum,
To'rt tomonda g'animglar.
To'rtta boshning kasriga
Jon talashar jonimlab.
Kun ko'rmagan murg'aklar,
To'y ko'rmagan xonimlar,
Beshigidan jilmayib
Bolam yotar yonimda.
Men bu baxtni, tirikman,
O'zgalarga bermayman.

Urvog'im yo'q qo'limda,
Dard bilan qurollandim.
Murg'ak bolalar baxti,
Ahd bilan qurollandim.
Yer-u samo, yulduzlar,
Tuproq, tog'-u toshgacha,
O'ttiz sakkiz millionta
Xalq bilan qurollandim.
Men orimni nomardning
Qo'nog'iga bermayman.

Menda o'tmish qa'rini
Titib topgan doston yo'q,
Ertaklarga aylangan
Qadim bog'-u bo'ston yo'q.
Bo'lsa, bori shu Vatan,
Na Turon, na Turkiston,
Borim shu O'zbekiston,
Borim shu O'zbekiston.
Tuprog'ini ko'zimga
To'tiyo deb surgayman.



MUASSIS
O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI
MUDOFAA VAZIRLIGI

VATANPARVAR



Tahririyat kengashi:

general-mayor Hamdam Qarshiyev
polkovnik Alisher Ergashev
Maqsud Abilov

Tahririyatga kelgan qo'lyozmalar taqriz
qilinmaydi va mualliflarga qaytarilmaydi.
Mualliflar fikri tahririyat nuqtayi nazaridan
farqlanishi mumkin.
Gazeta Mudofaa vazirligi Axborot va
ommaviy kommunikatsiyalar departamenti
– "Vatanparvar" birlashgan tahririyatining
kompyuter markazida sahifalandi.

Bosh muharrir:

podpolkovnik Ahror Ochilov

ISSN 2010-5541

Gazeta O'zbekiston Matbuot va axborot
agentligida 2008-yil 6-iyunda 0535 raqami
bilan ro'yxatga olingan.

Telefonlar:

kotibiyat: 55 511-25-90
buxgalteriya: 55 511-25-76
yuridik bo'lim: 55 511-25-72

Navbatchi: kapitan Shohrux Saidov

Sahifalovchi: Dilnoza Meliqo'ziyeva

Musahhih: Zebo Sariyeva

Buyurtma: 481

Hajmi: 6 bosma taboq

Bichimi: A3

Adadi: 34 076 nusxa

Bosishga topshirish vaqti: 14:00

Topshirildi: 14:30

Gazetaning yetkazib berilishi uchun obunani
rasmiylashtirgan tashkilot javobgar.
Gazetaning poligrafik jihatdan sifatli chop
etilishiga "Muruvvatli-dil press" MChJ mas'ul.

Gazeta juma kuni chiqadi.

Gazeta 1992-yilning 24-iyunidan chiqa
boshlagan.

Nashr ko'rsatkichi: 114.

Bahosi: kelishilgan narxda.

"Muruvvatli-dil press" MChJ

bosmaxonasida chop etildi.

Bosmaxona manzili: Toshkent shahri
Chilonzor tumani "Nafosat" MFY Qatortol
ko'chasi, 21-uy.

1 2 3 4 5 6

Manzilimiz: 100095, Toshkent shahri,
Olmazor tumani Sag'bon ko'chasi, 382-uy.

@Vatanparvargazetasi_bot
"Vatanparvar" birlashgan
tahririyati bilan bog'lanish
uchun telegram bot



BIZ HAQIMIZDA

www.mudofaa.uz

t.me/mv_vatanparvar_uz
t.me/mudofaavazirligi

www.mv-vatanparvar.uz
vatanparvar-bt@umail.uz

[mudofaavazirligi](https://www.facebook.com/mudofaavazirligi)

[mudofaavazirligi](https://www.instagram.com/mudofaavazirligi)

www.youtube.com/c/UzArmiya